

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

“Himoyaga ruhsat”

ATT kafedra mudiri

2016 yil «____» _____

**INTERFAOL USULLARDAN PEDAGOGIKA FANLARINI O‘QITISHDA
MULTIMEDIALI DASTUR ISHLAB CHIQISH**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi _____ X.I. Alixonova
Imzo

Rahbar _____ A.A. Abduqodirov
Imzo

Taqrizchi _____ Sh.M. Gulyamov
Imzo

HFX va E bo‘yicha _____ F. Qodirov
Imzo

Toshkent 2016

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
AKT SOHASIDA KASBIY TA'LIM FAKULTETI**

“Axborot ta'lim texnologiyalari” kafedrası

5111000- Kasb ta'lim (informatika va axborot texnologiyalari) yo‘nalishi

Bitiruv malakaviy ishiga

T O P S H I R I Q

Alixonova Xadichaxon Iskandar qizi

Ish mavzusi: Interfaol usullardan pedagogika fanlarini o‘qitishda multimediali dastur ishlab chiqish

2015 yil “15“ dekabrda “1324-20”-sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

1. Ishni himoyaga topshirish muddati: 31.05.2016 y
2. Ishga oid dastlabki ma'lumotlar: ma'ruza matn, internet manbalari, dasturiy ta'minot, maxsus adabiyotlar, multimedia vositalari va texnologiyalari_____
3. Hisoblash – tushuntirish yozuvlarining mazmuni (ishlab chiqiladigan masalalar ro‘yxati):
 - Kirish
 - Asosiy qism;
 - HFX qismi;
 - Xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, ilova.
4. Grafik materiallar ro‘yxati: taqdimot materiallari, jadvallar

Topshiriq berilgan sana: 22.01.2016y.

Rahbar_____

Topshiriqni oldim_____

5. Ishning ayrim bo‘limlari bo‘yicha maslaxatchilar:

Bo‘lim nomi	Maslaxatchi o‘qituvchining F.I.O.	Imzo, sana	
		Topshiriq berildi	Topshiriq olindi
Asosiy qism	Abduqodirov A.A.	20.01.2016y	20.01.2016y
Hayot faoliyati xavfsizligi	Qodirov F.	20.03.2016y	20.03.2016y

6. Ishni bajarish grafigi

№	Ish qismlarining nomi	Bajarilish muddati	Raxbar belgisi
1	Masalaning qo‘yilishini ishlab chiqish	25.01-10.02	
2	Ishga doir ma'lumotlar bazasini yig‘ish	12.02-28.02	
3	1 bob ustida ishlash. Pedagogika fanini o‘qitishda interfaol usullarini ta’lim jarayonida qo‘llash	1.03-22.03	
4	Dastur ta'minotini ishlab chiqish	23.03-10.04	
5	2 bob ustida ishlash. Interfaol usullardan pedagogika fanlarini o‘qitishda multimediali dastur ishlab chiqish	10.04-29.04	

6	HFX bo'limi ustida ishlash	2.05-15.05	
7	Bitiruv malakaviy ishining dastlabki himoyasi tayyorgarlik	19.05.2016	
8	Bitiruv malakaviy ishining himoyasi	31.05.2016	

Bitiruvchi _____ 2016yil ____ ____

Rahbar _____ 2016yil ____ ____

Ushbu bitiruv malakaviy ishi interfaol usullardan pedagogika fanlarini o'qitishda multimediali dastur ishlab chiqishga qaratilgan. U uch bobdan iborat. Birinchi bobda: interfaol usullarni tahlili, Case-study texnologiyasidan foydalanish, multimedia asosida dars jarayonin tashkil qilish haqida so'z boradi. Ikkinchi bobda: interfaol usullardan pedagogika fanlarini o'qitishda multimediali dastur ishlab chiqishtexnologiyasi, uchinchi bobda esa hayot faoliyati xavfsizligi yoritilgan. So'ng xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati keltirilgan.

This diploma work is focused on the development of multimedia software in training pedagogical subjects interactive methods. This qualification work consists of three sections. The first part includes the analysis of interactive methods, the use of technology Case - study, the organization of the learning process through multimedia. In the second chapter we will focus on technology development of multimedia programs for training teachers of subjects and interactive methods in the third section discloses life safety. And at the end shows the conclusion and list of references.

Эта дипломная работа направлена на разработку мультимедийных программ в обучение педагогических предметов интерактивными методами. Эта квалификационная работа состоит трёх разделов. В первая часть включает в себя анализ интерактивных методов, использование технологии Case – study, организация процесса обучения на основе мультимедии. Во второй главе речь пойдёт о технологии разработки мультимедийных программ в обучении педагогических предметов интерактивными методами и в третьей разделе раскрыта безопасность жизнедеятельности. И в конце приведены заключение и список использованной литературы.

KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan – kunga kuchayib boromoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi – talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, musatqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi – talaba asosiy figuraga aylanadi. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat.

Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Hozirda yangicha metodlarni yoki innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tadbqiq etish haqida to'xtalganda interfaol usullarning o'quv jarayonida qo'llanishi tushuniladi.

Interfaollik – bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bunda o'quv- biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (komp'yuter yordamida) yoki o'quvchining o'zaro muloqotiga asosan kechadi.

Interfaollik o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi va o'qituvchi muloqotlarida sodir bo'ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi: o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishidir. U o'zini intellektual salohiyatini namoyon etadi va o'quv sifati va samaradorligini oshirishni ta'min etadi.

Interfaollik asosida darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham o'quvchi chetda qolmaydi, ya'ni ular ko'rgan, bilgan, o'ylagan fikrlarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Interfaol usullar nimalarni o'z ichiga oladi, hozirgi kunda quyidagi interfaol usulning shakl, formalari amalda qo'llanilmoqda.

Interfaol usullarning shakllari:

- Juftlikda ishlash;
- Karusel;
- Kichik guruxlarda ishlash;
- Akvarium;
- Tuganlanmagan gaplar;
- Aqliy hujum;
- Braun harakati;
- Daraxt yechimi;
- O'z nomimdan so'zlayman;
- Fuqarolar eshituvi;
- Rolli o'yinlar;
- Munozara;
- Debatlar;
- Case-study.

Yuqoridagilardan foydalanishda qandaydir bir maqsadni ko'zda tutib, muammoni keltirib, o'quvchilarni shu jarayonda ishlashga tayyorlab, uni ma'lum malakalarga ega bo'lgan holatlarda qo'llanilsa, kutilgan natijalarni olish mumkin. Interfaol o'qitishda o'qitish muhitini tashkil etiladi, qulay muhit yaratiladi, yaxshi tashkil etilgan o'qitish muhiti:

- o'qish va tadqiqotlarga ko'maklashadi;
- turli tadqiqotlar olib borish uchun materiallarga ega buladi;
- ijodkorlik qobiliyatiga rag'bat beradi;
- fikrlar va axborotlar almashuviga imkon yaratadi;
- ma'lumotlarni mustaqil olish ko'nikmalarini shakllantiradi;
- uzluksiz ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mavzuning dolzarbligi: “O'zbekiston Respublikasining ustuvor siyosati, ta'lim tizimi ish mazmunini demokratlashtirish, XXI asr yoshlarini har tomonlama

rivojlangan, yetuk, dunyoviy fikr yuritadigan, bilimli, barkamol shaxslarni jahon ta'lim standartlariga mos ravishda tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir". Barkamol shaxs hamisha o'z Vatani kamolotini rivojlantiradi, uning ravnaqi yo'lida umrini baxshida etishni o'z burchi deb biladi.

Yurtimiz kelajagi, xalqimiz, mamlakatimizning intellektual salohiyatiga, aql-zakovatiga, milliy ta'lim-tarbiya tizimini jahon andozalari asosida takomillashtirish, ta'lim tizimini yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishga, kadrlar tayyorlashga bevosita bog'liq. Yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan barkamol tashkilotchi va zukko kadrlarga ega bo'lishi uchun avvalo ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, uni hozirgi davr talabi darajasiga ko'tarish zarur va muhimligini hayot taqozo etayapti (I.A.Karimov "Barkamol avlod yili dasturi").

So'nggi yillarda ta'lim tizimiga boshqa sohalardan bir qator yangi tushunchalar kirib keldi.

Bugungi kunda ta'limning iqtisodiyligi va takomillashganligi o'rgatuvchi va o'rganuvchi aloqalari, texnika va texnologiyalar, ta'limni interfaol metodlar asosida tashkil qilish, hamda ta'lim samaradorligini oshirishga katta e'tibor berilmoqda.

Ta'lim tizimida, ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish – ta'lim samaradorligini oshiradigan innovatsion usuldir. Yoshlarni yangicha ishlashga va tafakkur yuritishga o'rgatish davr talabi ekanligi yurtboshimiz tomonidan asoslab berildi.

Hozirgi kunda barcha ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanishga erishilmoqda. Bu esa interfaol ta'lim asosida tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarni mazmun-mohiyatini to'liq tushunib yetishga va ularni samarali, qiziqarli, sifatli bo'lishini ta'minlashga ko'maklashadi. Mazkur usullarning yangi-yangi ta'lim usulariga tavsif beramiz. Interfaol metod nima yoki nimani anglatadi. Interfaol metodlar - shunday metodlarki, u o'quvchi - yoshlarning o'zaro muloqot va o'zaro ta'siridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usul. "Interaktiv" so'zi ingliz so'zidan olingan bo'lib, "Interakt", ya'ni "Inter" - bu "o'zaro", "akt" - "harakat, ta'sir, faollik" ma'nolarini bildiradi.

Interfaol usullardagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon etishga, tashabuskorlikka, guruhlarda masalalar echimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.

Ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonlarida interfaol metodlardan foydalanishning nazariy - amaliy asoslarini, ilmiy asosini ishlab chiqish.

Tadqiqot maqsadiga muvofiq quyidagi vazifalar belgilanadi:

1. Mavzuga oid pedagogik va metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish;
2. Interfaol ta'lim asosida darslarni tashkil qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirish;
3. Ta'limning interfaol usulini eng qulay yo'llarini o'rganish;
4. Kasb-hunar kolleji ta'lim-tarbiya jarayonida interfaol metodlardan foydalanish holatini o'rganish va tavsiflash;
5. Darslarda interfaol metodlarning turli yo'l-usullarini belgilash;
6. Kasb - hunar kollejlari interfaol usullar asosida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari ustida tajriba-sinov o'tkazish;
7. Interfaol metodlarning eng qulay usullari bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi: Ushbu bitiruv malakaviy ishini bajarishda quyidagi vazifalarni bajarish maqsadga muvofiq:

- Inrefaol usullarni tahlilini o'rganish;
- Case study texnologiyasini ta'lim jarayonida qo'llashni o'rganish;
- Multimedia asosida o'quv jarayonini tashkil etishni o'rganish;
- Dars jarayonining asosiy bosqichlari;
- Auto Play dasturi asosida mulimediali dastur ishlab chiqishni o'rganish;
- Pedagogika fanida dars o'tish metodikasini qo'llashni bilish.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: Tadqiqot metodlari: pedagogik-psixologik va o'quv-metodik adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar, o'quv-metodik qo'llanmalarni tahlil qilish, o'qituvchilar bilan suhbatlar o'tkazish, o'qituvchilarning darslarini kuzatish, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va umumlashtirish.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosini «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini axborotlashtirishni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan direktiv va me'yoriy hujjatlar, pedagogika, informatika va axborot texnologiyalari sohasidagi taniqli olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti: Pedagogika fanidan multimediali dastur ishlab chiqish va ushbu fanlarni interfaol usulda tashkil etish.

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi: Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- interfaol metodlar asosida ta'lim samaradorligini oshirish, shakllantirish yo'llari ishlab chiqiladi;
- interfaol metodlarning qulay usullarini tajriba-sinov yordamida aniqlanadi;
- interfaol metodlar asosida ta'lim samaradorligini oshirish va shakllantirish yo'llari bo'yicha kasb-hunar kolleji va pedagoglar uchun metodik tavsiyalar yaratiladi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati: Interfaol ta'lim asosida darslarni tashkil qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirish, uni shakllantirish yo'llari ishlab-chiqilib amaliyotga tadbqiq etiladi. Bitiruv ishining natijalaridan foydalanib, ta'lim samaradorligini oshirish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish orqali metodik yordamni tashkil qilishda qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning hajmi va tuzilishi: Ishning matni komp'yuterda yozilgan 86 bet hajmdan iborat bo'lib, uning strukturasi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova tashkil qiladi.

I – BOB. PEDAGOGIKA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARINI TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASH ASPEKTLARI

1.1. Interfaol usullarni tahlili

Ta'lim jarayonida interfaol usullardan foydalanishning turli vositalari va ularning ta'siri o'z-o'zidan yuzaga chiqmaydi. Interfaol usullarni to'g'ri, o'z vaqtida va unumli qo'llashga bog'liq. Shunday ekan, ta'lim jarayonida interfaol usullarning samarali qo'llanilishi quyidagi omillar bilan kafolatlanadi:

- mazkur usulni qo'llash uchun oldindan puxta tayyorgarlik ko'rish va rejalashtirish lozim;


- ushbu usulni qo'llash uchun tegishli vaziyat yaratilishi zarur;

- interfaol ta'lim jarayoni umumpedagogik talablar asosida, hissiyot-ehtirolarga berilmagan holda, do'stona, samimiyatli ravishda tashkil etilishi;

- individual yondashuv jarayoni o'quvchining erkin fikr yuritish, o'zining ichki kechinmalarini ijodiy bayon qilishlari uchun tegishli sharoitning yaratilishi;

- interfaol metodlar turli shakllarda amalga oshirilishi zarur.

Shunga ko'ra, interfaol metodlarning quyidagi shakllaridan ta'lim jarayonida keng ko'lamda foydalanilmoqda:



1.1 – rasm. Interfaol metodlar.

“Kichik guruhlarda ishlash” usulidan foydalanish o'quvchilarning darsdagi faolligini ta'minlaydi, har bir o'quvchining munozarada qatnashish huquqini va bir-biridan o'rganish imkonini beradi. Buning uchun sinfdagi o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir kichik guruhda 5-6 ta o'quvchi bo'ladi. Kichik guruhlar quyidagicha nomlanadi:



1.2-rasm. Kichik guruhlarda ishlash.

Har bir guruh o'z nomidan kelib chiqib, mavzuni yoritib beradi. Masalan, “Vatan” mavzusini “ILM” guruhi ilmiy yo'nalishda, “Ijod” guruhi esa ijodkorlik asosida, “Yozuv” guruhi yozma ravishda (insho, bayon), “Musika” guruhi musiqa, qo'shiq, “Sahna ko'rinishi” asosida taqdimotga tayyorlaydi.

Amerikaning “Street law” (ko'cha qonuni) dasturi bugungi kunda yer yuzining ko'plab davlatlari tomonidan “asr” ga olingan va ta'lim makoniga o'rnashib qolayapti. Bunga sabab dasturdan o'rin olgan yuzlab o'qitish metodlarining faolligi, jozibaligi va ta'sirlanganligidir. Ular yordamida o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalash, axborotlarni tanqidiy qabul qilish, haq-huquqlarini anglab yetish kabi imkoniyatlarga tezda ega bo'ladilar. O'qituvchi esa didaktik jarayonni qurishda bu metodlardan oqilona foydalanmog'i, ularni mavzu bo'yicha

o'quv elementlarining murakkabligi va vaqt tig'izligiga qarab chalg'ishtirmog'i lozim. Quyida "Street law" dasturidagi ba'zi metodlar kiritiladi.

"*Aqliy hujum*" metodining mohiyati jamoa hamkorligi asosida muammoni echish jarayonlarini vaqt bo'yicha bir qancha bosqichlarga (g'oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqish) ajratishdan iborat.

Dars jarayonida aqliy hujumdan maqsadli foydalanish ijodiy, nostandart tafakkurlashni rivojlantirish garovi hisoblanadi. "Aqliy hujumni" uyushtirish bir muncha sodda bo'lib, undan ta'lim mazmunini o'zgartirish jarayonida foydalanish bilan birgalikda ishlab chiqarish muammolarining echishni topishda ham juda qo'l keladi. Dastlab guruh yig'iladi va ular oldiga muammo qo'yiladi. Bu muammo echimi to'g'risida barcha ishtirokchilar o'z fikrlarini bildiradilar. Bu bosqichda hech kimning o'zga kishi g'oyalari hujum qilish yoki baholashga haqqi yo'q.

Demak, "aqliy hujum" yo'li bilan hissa vaqtda o'nglab g'oyalarni yuzaga chiqish imkoniyatlari mavjud bo'ladi. Aslini olganda g'oyalar sonini qo'lga kiritish asosiy maqsad emas, ular muammo yechimini oqilona ishlab chiqish uchungina asos bo'ladilar. Bu metod shartlaridan biri hech qanday tashqi ta'sirsiz qatnashuvchilarning har biri faol ishtirokchi bo'lish kerak. Bildirilgan g'oyalarning besh yoki oltitasigina asosiy hisoblanib muammo echimini oqilona topishga salohiyatli imkoniyatlar yaratadi.

Shunday qilib, "aqliy hujum" qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- olg'a surilgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g'oyalar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi;
- istalgan g'oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;
- muammo yechimidan uzoq g'oyalar ham qo'llab-quvvatlanadi;
- barcha g'oyalar yoki ularning asosiy mag'zi (farazlari) qayd etish yo'li bilan yozib olinadi;
- "Hujum"ni o'tkazish vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;

- beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko'zda tutilishi kerak.

Vazifasi: “Aqliy hujum” qiyin vaziyatlardan qutilish choralari topishga, muammoni ko'rish chegarasini kengaytirishga, fikrlash bir xilliligini yo'qotishga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni echish jarayonida kurashish muhitidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o'tiladi va guruh yanada jipslashadi.

Ob'ekti: qo'llanish maqsadiga ko'ra bu metod universal hisoblanib tadqiqotchilikda (yangi muammoni echishga imkon yaratadi), o'qitish jarayonida (o'quv materiallarini tezkor o'zlashtirishga qaratiladi), rivojlantirishda (o'z-o'zini birmuncha samarali boshqarish asosida faol fikrlashni shakllantiradi) asqotadi.

Qo'llanish usuli: “Aqliy hujum” ishtirokchilari oldiga qo'yilgan muammo bo'yicha har qanday mulohaza va takliflarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib boriladi va ularning mualliflari o'z fikrlarini qaytadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo'ldi. Metod samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflanadi va hujum davomida ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy hujum tugagach, muhimlik jihatiga ko'ra eng yaxshi takliflar generatsiyalanadi va muammoni echish uchun zarurlari tanlanadi.

“*Ajurli arra*” metodi tuzilishi jihatdan o'zida quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Topshiriqlarni bo'lish: “Topshiriq va matnli materiallar bir nechta asosiy qismlarga (yoki mavzular)ga qirqladi”.

2. Birlamchi guruhlar: “har bir guruh a'zolari qirqlangan mavzuni oladilar va ekspertga aylanadilar”.

3. Ekspert guruhlar: “qo'lida bir mavzuga oid o'quv topshiriqlari mavjud bo'lgan o'quvchilar mavzuni muhokama qilish, boshqalarga o'rgatish rejasini egallash uchun ekspert guruhlariga birlashadilar”.

4. Birlamchi guruhlar: “O'quvchilar o'zlarining birlamchi guruhlariga qaytadilar va ekspert guruhlarida o'rganganlarini o'qitishadi”.

Izoh: “Ajurli arra” mohiyatiga aniqlik kiritish uchun ba'zi bir tavsiyalarni yoritish lozim.

1. O'qitish jarayonida bu tarzda yondashilganda o'quvchilarning hamkorlikda ishlashga va qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotlarni o'zlashtirishga imkon tug'iladi.

2. U yoki bu faoliyatni darsda amalga oshirish uchun o'quvchilarga boshlang'ich axborotlarni uzatish zarurati tug'lsa, ma'ruza o'rnini bosa oladigan samarali instrumentariy hisoblanadi.

3. O'qituvchi murakkab mazmunli mavzular bo'yicha o'quvchilarni darsga tayyorlash uchun oldindan ularning har biriga mo'ljallangan alohida axborotli paket tayyorlaydi. Unda darslikdan, qo'shimcha tarzda gazeta, jurnal, maqolalardan materiallar bo'lishi kerak.

4. har bir o'quvchi 2 guruh tarkibida ishtirok etadi: dastlab "o'z uyi" (birlamchi) guruhiga birlashib, o'quv elementlarini mustahil o'rganishadi. Ekspert guruhini tezda tashkil etish uchun o'quvchilar olgan axborotli paketlarda har bir mavzuga oid materiallar bir hil rangdagi qog'ozlarga yozilgan yoki rangli qalam bilan qog'ozning biror bir burchagi bo'yalgani ma'qul.

5. har bir guruhda 3 tadan 5 tagacha kishi o'quvchi soniga harab bo'lishi mumkin. har bir o'quvchi "o'z yo'l"dagilarni va qayta uchrashish joyini aniqlab olish kerak.

6. O'qituvchi o'quvchilarga "rangli" topshiriqlar asosida guruhga birlashishini taklif etadi va ular alohida mavzular bo'yicha ekspertga aylanadi. Misol uchun, "qizil" larni xonasi oxirida, "ko'k"larni esa auditoriya yo'lakchasida uchrashishi belgilanadi. har bir ekspert guruhda 3tadan kam o'quvchi bo'lmasligi kerak.

7. Guruhlarga axborotli paket tarqatiladi. har qaysi guruh turli hil materiallar to'plamini olishlari va ularni o'qishi, muhokama hilishi, aynan shu axborotlar bo'yicha ekspertga aylanishi lozim. O'quv materiallari bo'yicha "ekspert" bo'lishi uchun o'quvchilarga vaqt etarli bo'lishi kerak. Bu uchun agar materiallar murakkab va katta bo'lsa, ehtimol bir dars to'liq talab hilinadi.

8. O'quvchilarga quyidagicha topshiriqlar beriladi:

- paketdagi materiallarni qunt bilan o'rganing va muhokama hiling;

- bir-biringizdan so'rang va o'quv materiallarini har biringiz tushinib olganingizga ishonch hosil hiling;
- o'z uyingiz guruhini o'qitish zarurligini hisobga olib materiallarning muhim o'quv elementlariga e'tiborni harating.

9. O'quvchilar o'z uylariga qaytishlarini iltimos hiling. har biri o'z "uyi" –guruhiga axborot beradi. Shaksiz, "uy" guruhida ekspert guruhlaridan bittadan o'quvchi bo'lishi shart. O'quvchi o'rganib kelgan materiallarni o'z guruhi o'quvchilariga o'rgatish javobgarligini bo'yniga olish lozim. Bu jarayon o'quv materiallarining o'zlashtirish zarurligiga harab yana bir soat davom etishi mumkin.

10. O'quvchilar bir-birlaridan axborotlarni o'rganishib bo'lishgach, o'qituvchi oldindan rejalashtirgan faoliyat turini o'tkazishi mumkin.

Munozara. Bu metod yordamida o'quvchilarga muayyan muammo bo'yicha to'liq axborotlar etkaziladi, munozara uchun tanlangan mavzuni o'quvchilar ayovsiz "shturm" hiladilar va pirovard natijada muammoga tegishli ma'lumotlarni atroflicha o'rganalidar.

Munozarani o'tkazish metodikasi:

1. Munozara olib boruvchi-boshlovchi (o'qituvchi, jurnalist, boshliq va hokazo) mavzuni oldindan tanlaydi va ishtirokchilarni taklif etadi.
2. Boshlovchi ishtirokchilarga "aqliy hujum" topshiriqini beradi va uning qoidalarini tushuntiradi:
 - "hujum"dan maqsad – muammo echimiga oid variantlarni mumkin qadar ko'proq taklif etish;
 - o'z aql-idrokingizni markazlashtirishga harakat hiling va diqqatni muammo echimiga haratgan holda fikrlar bildiring. Bildirilgan g'oyalar umumiy fikrga zid bo'lsada, hech biri rad etilmaydi;
 - boshqa ishtirokchilar g'oyalarini ham rivojlantiring;
 - taklif etilganlarni baholashga urinmang, bu ish bilan siz keyinroq shug'ullanasiz.

Ta'lim qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, “Kollej ta'limini rivojlantirish Davlat dasturi”ni ta'lim jarayoniga tadbiq etish bilan ta'limda sifat va samaradorlikka erishish va shu orqali modernizatsiya hilingan ta'lim standartlari to'liq bajarilishi ta'min etish davri boshlandi.

Davlatimiz tomonidan yangi kasb-hunar kollejlari qurilishi, obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlari jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda. Kollejarimiz yangi qiyofaga, barcha qulayliklarga ega bo'lib bormoqda. Kasb-hunar kollejlarni yangi jihozlar, asbob-uskunalar, takomillashtirilgan dasturlar, modernizatsiya hilingan tajriba-sinovdan o'tgan standartlar, darsliklarning yangi avlodi bilan (ijara tariqasida) ta'minlash, kompyuterlashtirish Davlat umummilliy dasturi asosida izchil amalga oshirilmoqda.

Boshqacha qilib aytganda, zerikarli darslar o'rniga darslarni tashkil etishga mas'uliyat bilan yondashaydigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, ma'suliyatli, zamonaviy interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o'zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta'limni tashkil eta oladigan o'qituvchilarga talab oshib bormoqda. Ta'limda moddiy baza, standart, o'quv rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o'zlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg'ulotlarni olib boruvchi o'qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga, pedagogik mahoratiga bog'lanib qolaveradi, o'quv-biluv markazida esa o'quvchi tarmog'ini taqozo etadi.

Ular qanday ta'lim o'quvchi shaxsiga, uning qiziqish, hoxish-istagiga, extiyojiga qaratilmog'i talab etiladi. Endi: “Ta'limni individuallashtirish nima?” degan savolga javob beraylik:

- ta'lim jarayonini induviduallashtirish shunday o'qitish usuliki, bunda har bir o'quvchi o'quv jarayonida faol ishtirok etib, o'quv-biluv jarayoniga shaxsiy hissa qo'shishi hisobga olinadi;
- ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchining uslubiy yondashuvi, tezkorligi, o'quvchining shaxsiy xususiyatlari hisobga olinadi;

- o'quv-metodik, psixologik, pedagogik tashkiliy boshharuv ishlarini olib borishda o'quvchi shaxsi o'quv-biluv markazida bo'ladi.

1. Guruhlarda ishlanganda, o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etganda har bir o'quvchi bilan yaklama-yakka ishlanganda ularning shaxsiy xususiyatlari doimo o'qituvchi diqqat markazida turmog'i, hisobga olinmog'i kerak.

2. O'quvchi bilan muloqot olib borganda ham, uning o'ziga xosliklari diqqat e'tiborda tutilishi kerak.

3. Ta'lim jarayonida ham, uning qobiliyati, imkoniyatlari nazarda tutilishi kerak.

4. Pedagogik psixologik jarayonlarni olib borishda o'quvchining shaxsiy rivojlanish darajasini ko'zda tutish zarur.

Individuallashtirish ta'lim printsiplari:

- Individuallashtirish – o'quv jarayonining bosh strategiyasidir;

- O'quv jarayonini individuallashtirish orqali shaxsni rivojlantirish ta'minlanadi;

- har bir o'quv predmetini o'qitishni individuallashtirish orqali amalga oshirish kutilgan natijani kafolatlaydi;

- O'qitish shakllarini individuallashtirish bilan integratsiyalash sharoiti yaratiladi;

- Individuallashtirish ta'lim – o'quv jarayoni sifat va samaradorligini ta'minlaydi;

- Individuallashtirish ta'limda ko'nikma, malaka, bilim olish o'quvchining qiziqishi asosida kechadi;

- Mustaqil ishlay olish o'quvchining umumo'quv ko'nikmasini rivojlantiradi, taraqqiy ettiradi.

Demak, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligi o'quvchining o'quv mazmunini o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustahil mutolaa bilan samarali shug'ullanishi, mustahil fikr yuritishi va tafakkur faoliyati bilan bog'liq. Interfaol metodlarda dars jarayonini olib borishda o'quvchilarda quyidagi xususiyatlarning rivojlanishini ko'rsatish mumkin.

O'quvchi o'qitilmaydi, uni mustaqil o'qish, o'rganish, ishlashga o'rgatiladi. Bunda o'quvchilar mustaqil ravishda tahlil qilish orqali o'zlashtirishga, ijodiy mulohaza yuritishga, shaxsiy xulosalar asosida erkin fikr yuritishga o'rgatiladi. O'quvchilarda yod fikrlarga harshi fikr yurita olish, o'z pozitsiyasini himoya hila olish ko'nikmalari shakllantiriladi.

O'quvchiga bilimlar tayyor holda berilmasdan, bilimlarni darsliklardan, internetdan, turli boshqa manbalardan izlash, topish, qayta ishlash orqali uning bilim olish malakasi shakllantiriladi. Olgan bilimlari orqali ijodiy mushohada yuritish imkoniyati yaratiladi. O'quvchini darsliklar bilan ishlash, o'qish, o'rganish, konspekt yozish, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib mustahil o'zlashtirish ko'nikmalarini egallashga o'rgatiladi.

Kollejda barcha o'quvchilarning o'z qobiliyatlari darajasida albatta o'zlashtirishlari kafolatlanadi. Bunda o'quvchining o'zlashtirilgan, olgan bilimlarini hayotda, amaliy faoliyatda foydalana olish ko'nikma va malakalari bilan belgilanadi.

Barcha o'qituvchi-o'quvchilar interfaol metodlar asosida ishlashni o'rganib, uni o'z o'quv-biluv faoliyatlariga olib kira olsalar barcha o'quvchilar bir xil natijalarga erisha oladilar.

Dars jarayonini joriy etishda va uning strukturasidan unumli foydalanishda o'quvchilar faoliyatini tashkil etish muhim rol o'ynaydi. Zeroki, jarayon markazida o'quvchi shaxsi turadi. Demak, ta'lim jarayoni o'quvchi shaxsiga qaratilmog'i zarur.

Pedagogik adabiyotlarda, metodik qo'llanmalarda va kollej amaliyotida aytilishicha o'quvchining o'quv-biluv faoliyatini olib borish uch yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. umumiy;
2. guruhli;
3. yakka tartibda.

1. Umumiy yo'nalishdagi dars jarayoni faoliyatida o'qituvchi rahbarligida guruhdagi barcha o'quvchilarning xatti-harakatlari tushuniladi.

2. Guruhli o'quvni tashkil etishda o'quvchilar faoliyati guruh-guruhlarga bo'linib olib boriladi.

3. Yakka tartibdagi o'quv jarayonida o'quvchilar yakkama-yakka faoliyat olib boradilar.

Umumiy shakldagi faoliyatni tashkil etuvchi darslarda, o'quvchilar bir vaqtning o'zida bir xildagi topshiriqlarni guruh bo'yicha birgalikda muhokama etadilar, fikr almashadilar, solishtiradilar, umumlashtirgan holda xulosalar chiqaradilar. O'qituvchi, o'quvchilar bilan birgalikda va bir vaqtda vazifani bajarishda hamkorlik qiladilar, ham ijodkorlikda ish yuritiladilar. O'qituvchi so'zlash, tushuntirish, ko'rsatish jarayonida barcha o'quvchilarni jalb qilgan holda masalani birga muhokama qiladi.

Bunday muloqotlar o'quvchilar ishonchini qozonishga o'quvchilar bilan muloqotga kirishishga, jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasining hosil bo'lishiga olib keladi.

Umumiy o'quv-biluv faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos kamchilik va etishmovchiliklari ham mavjud. Darsda faoliyat o'qituvchi tomonidan barchaga birdek haratiladi, ya'ni bir oz abstraktlik yuzaga keladi.

Barchani qiziqish, qobiliyatlaridan qat'iy nazar bir xilda, bir maqsad yo'lida izlanish, fikrlash, ishlashga undaydi.

O'quvchilarning rivojlanish darajasi, tayyorgarligi bir xil bo'lganligi tufayli bilim va ko'nikmalarni qabul qilib olish, o'zlashtirish birdek natijani kafolatlamaydi. Dars sifati va samaradorligi pasayishi holatlari kuzatiladi.

O'qish, o'zlashtirishlari sust bo'lgan o'quvchilar sekin ishlaydilar. O'quv materiallarini to'la o'zlashtira olmaydilar. Ular ko'proq o'qituvchining shaxsiy e'tiboriga muhtojlik sezadilar.

Lekin, ayrim o'quvchilar murakkabroq, qiyinlik darajasi yuqoriroq bo'lgan materiallarni o'zlashtirishga moyil bo'ladilar. Ayrimlari esa, ko'proq mustahil izlanish, ijodiy yondashuv asosida ishlashga qiziqish bilan haraydilar. Shuning uchun, umumiy yo'nalishli darslarda savol-javoblar, laboratoriya ishlari, mashqlar bajarish, masalalar echish iloji boricha o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan bo'lishi

maqsadga muvofiqdir. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, darslar bir xillik, umumiy yondashuv, bir xil qolipdagi ta'limiy faoliyatdan qochishni taqozo etadi va quyidagi ishlarni amalga oshirish mumkin:

1. Orientir. O'yin ishtirokchilari va ekspertlarni tayyorlash bosqichi. O'quv jarayonining ish rejasi o'qituvchi tomonidan taklif etiladi. O'quvchilar bilan hamkorlikda mashg'ulotning maqsad va vazifalari aniqlanadi. O'quv jarayonini muammosi shakllantiriladi. O'quv jarayonida kechadigan imitatsiya, o'yin qoidalari, umumishining borishi aytiladi, o'quvchiga o'quv jarayoni materiali paketi tarqatiladi.

2. O'quv jarayoniga borishga tayyorgarlik. O'quv materiallari, vaziyatlar, instruktsiya va boshqa paket hujjatlari bilan tanishish. O'yin qoidalari tablosi tuziladi. Unga o'yin stsenariysi, o'yin ketma-ketligi, olinadigan natijalar aks ettiriladi. O'yin jarayonining o'zgartirish, unga chetdan aralashish man etiladi. Faqatgina jarayonni olib borishgina, ayrim korrektirovkalarni kiritish mumkin.

O'yin belgilanganda o'quvchi unga aralashmay, uni kuzatib, boshqarib boradi. Uning asosiy vazifasi muhokamani tashkil etish, o'yinni kuzatib turish, natijalarni, olinayotgan fikr-mulohazalarni hisoblash, ishtirokchilarning savollariga javob berish.

3. O'tkazilgan o'yin muhokamasi. O'tkazilgan o'yin jarayonini tahlil etish, muxokama etish, baholashdan iborat. O'qituvchi yakuniy muhokamani o'tkazadi. Muhokamada ishtirokchi va ekspertlar fikr almashadilar, o'z pozitsiyalarini himoya hiladilar, taassurotlarni, paydo bo'lgan muammo va fikrlarni bildiradilar.

Yuqoridagi axborotlardan ma'lum bo'ldiki interfaol holatda kechgan ishchanlik o'yinlarida: o'qituvchi – o'quvchi, o'qituvchi – guruh, o'quvchi – guruh, o'quvchi-o'quvchi, guruh-guruhlar orasida o'zaro muloqotlar bo'lib o'tishi orqali o'quv mazmuni o'zlashtiriladi.

Interfaol usulda ish yuritmoqchi bo'lgan o'qituvchilarga shuni eslatmoq mumkinki, yangicha ishlash uchun faqatgina maqola, adabiyotlar o'qishning o'zi kamlik hiladi. Buning uchun, ya'ni o'qituvchi o'z faoliyatida interfaol metodlarni qo'llash uchun, u shaxsan o'zi ishchanlik o'yinlari, aqliy hujum, munozara,

debatlarda qatnashib, o'zi tajribadan o'tkazadi, bu ishga shaxsiy xissasini qo'shib boradi.

Buning uchun u interfaol darslarning o'tkazishning quyidagi qoidalarini bilib, o'zlashtirib, amalga kiritishi kerak:

1. interfaol mashg'ulotlarga barcha ishtirokchilar (o'quvchilar) jalb etilishi talab hilineadi. Bunda shunday texnologiyalar tanlanishi kerakki, ish jarayonida barcha ishtirokchilarning ishtiroki yoki muhokamasi ta'minlansin;

2. mashg'ulotga ishtirok etishni psixologik tayyorlash zarur. Darsda ishtirok etuvchilar jarayonga kirishib ketishga tayyor emasligini hisobga olmoq kerak. Yangi tashkil etilayotgan interfaol darslarda ulardagi xadiksirash, tortinchoqlik, indamaslik holatlari darsning faol yechishi, ichki imkoniyatlarni ishga solishga to'sqinlik hilib kuzatiladi;

3. o'quvchilarni yangi texnologiyalarni ko'plab joriy etish bilan toliqtirmaslik. Ishtirokchi imkoniyati, yangi texnologiya sifati bir-biriga mos kelgani ma'qul. Bir guruhda ishtirokchilar soni 30 kishidan oshib ketmasligi kerak. Shunday sharoitdagina kichik guruhlarda ishlash, fikrini erkin bayon etish, muammolar echimini topish oson kechadi;

4. mashg'ulot olib boriladigan xonalarni tayyorlashga alohida e'tibor berish kerak. Sinf shunday tayyorlanishi kerakki, kichik va katta guruh bilan ishlaganda, ular erkin harakatlansinlar. Boshqacha hilib aytganda, o'quvchiga qulay muhit yaratilishi kerak. Ayniqsa, o'quvchining bir-biri bilan muloqotda bo'yin egib o'tirishi noqulaylik keltirib chiharadi. Stollarni 4-6 kishilik hilib qo'yish, guruh a'zolarining bir-birlariga harab o'tirishi, ko'rib, fikrlashuvga qulay muhit yaratilishi yaxshi natijalar beradi;

5. ishchanlik o'yinlarini olib borishdan oldin uning reglamenti, ketma-ketligiga rioya hilish kerak. Unga qat'iy rioya hilishni oldindan kelishib olgan ma'qul. har bir ishtirokchi har qanday fikrlash, nuqtai nazarga chidamli bo'lish, oxirigacha eshitishi, tanqid hilmasligi kerak. har bir ishtirokchining so'z erkinligiga hurmat bilan harash, shaxs hurmatini saqlash;

6. ishtirokchilarning kichik guruhlarga bo'linishlariga diqqat-e'tibor bilan harash kerak. Avvalo, kichik guruhlarini shakllantirish erkin, xohish-istaklar asosida kechgani ma'qul. Keyinchalik guruhlarini tasodifiy shakllantirishga o'tilgan ma'qul. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki interfaol usullar birdaniga ko'pgina vazifalarni bajara olishga imkon beradi.

Eng muhimi, interfaol usullar o'quvchilarning kommunikativ bilimi, tushunchasini, kunikma va malakalarini oshiradi. Ularni hamkorlik, hamjixatlik, do'stona munosabatlarda ishlashni ta'minlaydi. Ayniqsa, bir-birlarini eshitish, fikrini bayon etish, o'zaro hurmatga undaydi.

Bu usulda ishlash sinfda ruhiy holatni, yuklamalarini engillashtiradi. Mashg'ulot shakllarini, faoliyatlarini o'zgartirib turish asosida mu'zim muammolar yechishni topishga o'rganib boradilar.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ldiki o'qituvchi dars beruvchi emas, balki o'quvchilarni muammoga yo'naltiruvchi, tadqiqot faoliyati maslahatchisi, tashkilotchisi va muvofiqlashtiruvchisidir. U o'quvchining mustahil fikrlashi uchun sharoit yaratadi va ularni tashabbusini qo'llab-quvvatlaydi.

O'z navbatida o'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda o'qitish jarayoni va uning natijalari uchun mas'uliyatni taqsimlash orqali o'qish jarayonining to'laqonli ishtirokchilariga aylanadi.

Interfaol ta'lim asosida dars jarayonini tashkil etilganda:

1. O'quvchining o'zaro faolligi oshadi, hamkorlikda, ijodkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

2. O'quv reja, dastur, darslik, standart me'yor, qo'llanmalar, mavzu mazmuni bilan ishlash malakalari shakllanadi.

3. Ta'lim mazmunini, matnini mustahil mutolaa hilish, ishlash, o'zlashtirish kundalik shaxsiy ishlarga aylanadi.

4. O'quvchi erkin fikr bildirish, o'z fikrini himoya hilish, isbotlay olish, tasdiqlay olishga odatlanadi.

5. Eng muhimi, o'quv jarayonida didaktik motivlar vujudga keladi. Ya'ni, o'quvchining ehtiyoj, xohish, istagi qondiriladi. O'quv-biluv jarayonida

o'quvchining manfaatdorligi oshadi. Bu holat o'quvchining o'quv maqsadlarga erishishda yuqori bosqichga ko'taradi. Darsni interfaol metodlarda tashkil etishining qanday afzalliklari mavjud:

- o'qitish mazmuni yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;
- o'z vaqtida o'quvchi-o'qituvchi o'quvchilar orasida ta'limiy aloqalar o'rnatiladi;
- o'qitish usullari ta'lim jarayonida turli xil ko'rinishlarda kechadi: yakka, juft, kichik guruh, katta guruh;
- o'quv jarayoni o'quv ehtiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo'ladi;
- o'zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o'quv materiallari yaxshi estada qoladi, o'quvchida o'zaro muloqatga kirishish, fikr bildirish, fikr almashinish ko'nikmalari shakllanadi;
- o'quv jarayonida o'quvchining o'z-o'ziga baho berishi, tanqidiy harashi rivojlanadi;
- o'quvchi uchun dars qiziqarli o'qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi, o'qitish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo'ladi;
- har bir o'quvchini o'zi mustahil fikr yurita olishga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi;
- interfaol usulda o'qitilgan darslarda o'quvchi faqat ta'lim mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining tanqidiy va mantiqiy fikrlashishini ham rivojlantiradi.

Albatta interfaol davrlarni tashkil etishning ham o'ziga yarasha kamchiliklari mavjud:

1. o'quv-biluv jarayoni ko'plab vaqt sarflashini talab qiladi;
2. interfaol mashg'ulotlarda barcha o'quvchilarni kerakligicha nazorat yetib borishining imkoniyati bo'lavermaydi;
3. juda murakkab materiallar o'rganilayotganda o'quvchilar muammoni to'laqonli, aniq yecha olmaydilar, bunday sharoitlarda o'qituvchining roli past bo'lishi hollari kuzatiladi;

4. guruhlarda o'quv jarayoni kechayotganda kuchsiz o'quvchilarning ishtiroki tufayli kuchli o'quvchilar ham past ball yoki baho olish hollari kuzatiladi.

Bunday sharoitda o'qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo'yicha mushohada yuritishga, muammolarni o'z vaqtida yecha oladigan qobiliyatga ega bo'lishi kerak.

Interfaol usullarda darsni tashkil etishda o'quvchi shaxsini rivojlantirishni o'ziga-o'zi zamin yaratishdan boshlash kerak.

Ya'ni o'quvchi:

- o'zi mustahil mutolaa hilish, o'qish asosida bilim olishga;
- o'zini-o'zi anglab etishga, anglab tarbiya topishga;
- o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonch bilan harashga;
- o'quv mehnatiga mas'uliyat hissi bilan harashga;
- o'z faoliyatini mustahil tashkil eta olish, har bir minutni g'animat bilishga;
- o'quv mehnatiga o'zida xohish-istak uyg'ota olishga;
- har qanday vaziyatda faollik ko'rsata olishga;
- ayniqsa, hozirgi tezkor axborot manbalaridan unumli foydalana olishni asosiy va bosh maqsad hilib olishga o'rganmog'i zarur.

Shuning uchun ham hozirgi kunda o'quvchining o'z-o'zini rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogika, didaktika fanlarining oldida o'z echimini kutayotgan dolzarb muammolardan biridir.

Keyingi vaqtlarda o'qituvchilar orasida shaxsga haratilgan ta'lim nima, interfaol usulda o'qitish nima uchun zarur? Bu usul qachondan o'quv jarayoniga kirib kelgan? Uning qanday turlari mavjud? Tarkibiy tuzilishi qanday? Uni o'quv jarayoniga qanday olib kirish kerak, uni avvalgi usullardan farqi nimada kabi savollarga duch kelamiz.

Buning uchun shu kunlarda maktablarimizda olib borilayotgan an'anaviy darslarni yana bir marotaba eslab o'tish joizdir. An'anaviy o'qitish XVII asrda chex pedagogi Yan Amos Komenskiy tomonidan taklif etilgan.

U o'qitishning yagona klassik tizimini ishlab chiqib, uni guruh-dars sistemasi deb yuritadi. Keyinchalik bu sistema pedagogikada keng tarqalgan.

An'anaviy maktab guruh-dars tizimi nomini olish quyidagi o'ziga xos an'analarga ega:

- tahminan bir xil yoki yaqin yoshli bolalar tayyorgarlik darajasi yaqin bolalar guruhini tashkil etadi;
- guruh yagona reja, dastur, dars jadvali asosida ishlaydi;
- asosan mashg'ulot turi yagona dars hisoblanadi;
- dars ma'lum o'quv predmeti, mavzuga oid bir xil material ustida ishlaydi;
- o'quvchilar faoliyatini o'qituvchi boshharadi, har bir o'quvchining bilim darajasini baholaydi, yil oxirida o'quvchini guruhdan-guruhga ko'chirishni ham u hal qiladi;
- darsliklar asosan uy ishini bajarishda, uyda qo'llaniladi.

An'anaviy dars sxemasi quyidagicha ko'rinishga ega:

Yangi mavzuni – mustahkamlash – nazorat – baholash – o'rganish .

An'anaviy darsning kontseptual holati:

- Ilmiylik.
- O'quvchi tabiatiga mosligi.
- Ketma-ketligi, tizimlilik.
- Tushunarlilik.
- Mustahkamlilik.
- Anglash va faollik.
- Ko'rgazmalilik.
- Nazoratni amaliyot bilan bog'liqligi, amalda qo'llay bilish.

An'anaviy darsning kamchiliklari:

- Darsning bir qolipdagi, bir xilligi.
- Boshlang'ich ma'lumot berilib, uni o'zlashtirish jarayoni uyga reja, vazifa orqali amalga oshadi.
- O'quvchilar passiv eshituvchi va ularning mustaqilligi yo'q.

- O'quvchilar bir-biri bilan fikr almashadilar, nutqiy fikr almashuv amalga oshmaydi.

- qayta aloqalar yo'lga qo'yilmaydi.

- har bir faoliyat o'rtacha o'quvchiga yondashuv asosida kechadi.

- Ta'lim mazmuni asosan o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Biz shaxsiy-kasbiy faoliyatimizda turli xil muammoli vaziyatlarga duch kelamiz, aynan shu vaziyatlarning muqobil yechimini izlash, yuzaga kelgan har qanday muammoli jarayoning yechimini topa olish, istiqboli rejalarini tadbiq qila olish bizning bilim, mahoratimizga bog'liqdir. Aynan amaliy vaziyatlarni hal qilishda qo'llaniluvchi keys-stadi texnologiyasi kelgusi faoliyat jarayonida yuzaga keluvchi vaziyatlarning yechimini oldindan topishga o'rgatuvchi, yangi yechimlarni ishlab chiqishga yo'naltiruvchi pedagogik texnologiyalardan biridir.

Keys-stadi texnologiyasining asosiy maqsadi o'quv guruh o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish, mavjud muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali ularning ilmiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Shuningdek texnologiya talabalarning bilim, ko'nikma, malakalarini hamkorlikda qo'llashga, taklif qilingan yechimlarni tahlil qilish orqali muqobil yechimini izlashga o'rgatuvchi ta'lim texnologiyasidir.[9]

Keys-stadi texnologiyasi ilk marotaba 1870 yilda Garvard biznes maktabida qo'llanila boshlangan. "Muammo" (situatsiya) atamasiga keladigan bo'lsak, ushbu so'z ko'proq tibbiyot va huquqshunoslik sohalarida qo'llanilib kelingan, ta'lim tizimida bu so'z yangicha talqin qilinadi.

Keyslarni guruhlashtirishda, ularining mazmun mohiyatiga e'tibor beriladi, ularni guruhlashtirishda asosan maqsad vazifalar inobatga olinadi. Shuning uchun ham keyslarni guruhlashtirish bir muncha qiyin kechadi.

Keyslarni quyidagi turlarga ajratish mumkin

- baholash, tahlilga o'rgatuvchi;

- muammoni yechish, qaror qabul qilishga o'rgatuvchi;

- umumiy tarzda muammoni yechishga o'rgatuvchi keyslar;

Shuningdek ko'pgina adabiyotlarda keyslarni quyidagi turlarga ajratadilar:

- 1) Kalit keyslar(Key cases);
- 2) Notanish keyslar(Outlier cases);
- 3) Tanish keyslar(Local knowledge cases).

Keyslarni turlarga ajratishda N. Fedyaninm, V.Davidenkolarning ham o'z nazariyalari mavjud.

- tizimlashtirilgan (highly structured) keysda kichik hajmdagi qo'chimcha axborotlar beriladi, bunda muammoni vaziyatni yechayotgan talabalar oldindan tuzilgan rejalar asosida vaziyat yechimini izlashlari lozim. Bu turdagi keyslar yuqori darajadagi vaziyat yechimini talab qiladi.

- kichik tasvirlar (short vignettes) keysida muammoli vaziyat hajmi bitta matndan, bir yoki ikkita ilovadan iborat bo'lib, talabalar faqat yechimga xos tushunchalar bilan tanishtiriladi, tahlil davomida talaba bilim zahirasi kengligi alohida o'ringa egadir.

- katta hajmdagi tizimlashmagan keyslar (long unstructured cases) hajmi chegaralanmagandir. Shuningdek ta'lim jarayoning barcha turlarida foydalanish mumkin, ma'lumotlar aniq va to'liq hajmda talabalarga taqdim qilinadi.

- boshlang'inch keyslar (ground breaking cases) qo'llashdan maqsad talabalarni oldin o'zlashtirgan bilimlarini sinovdan o'tkazishdir va mavjud bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasini shakllantirishdir. Bu jarayonda talaba va o'qituvchilar ilmiy izlanuvchilar talab qilinadi. [11]

Keyslar qaysi turi bo'lishidan qat'iy nazar, ular o'rtasida keysning subkeyti va obykti bo'ladi. Subyekt izlanishning nazariy qarashi ko'rsatilgan amaliy, tarixiy birligi hisoblanadi. Obykti esa o'sha nazariy qarashning analitik suyagidir.

Keys tadqiqotchilari keyslarni ikki qismga ajaratadilar, ya'ni muammoli vaziyat va yechim. Muammoli vaziyat keysning dastlabki holatidir, bunda tegishli umumiy axborotlar kiritiladi. [9]

Muammoli vaziyatning yechimini izlashda talabalarni axborotlarni topishga yo'naltirish lozim. Bunday yondashish keys jarayonini rivojlantiradi va jarayonga nisbatan talabalarni faolligini taminlaydi.

Keys-stadi texnologiyasida muammoli vaziyatlarni yaratishda qo‘shimcha manbalar bu adabiyotlardir, ya’ni barcha keyslarning zahiraviy manbasi u foydalangan adabiyotlari hisoblanadi. Ular quyidagi turlarga bo‘linadi.

1. Badiiy, ommaviy (publistik) adabiyotlar. Turli hil muammoli vaziyatlarni ifodalashda, ijtimoiy-gummanitar fanlarga tegishli ma’lumotlarni keltirish, ommaviy (publistik) adabiyotlardan foydalanish, jarayoni ma’lum darajada dolzarblashtiradi va keyslarga nisbatan qiziqishni talabalarda kuchaytiradi. Badiiy adabiyotlardan foydalanishning o‘ziga xosliklaridan biri bu muallifning iqtidori va asarlarining go‘zalligi yordamida keyslarni yanada mazmundor bo‘lishi ta’minlashdir. Publistik maqola xos aniqlik keysni tizimlashtirishda yordam beradi. Badiiy, ommaviy (publistik) adabiyotlardan foydalanish keys tarkibini estetik jihatdan bezaydi, talaba faoliyati ijtimoriy hayot bilan bog‘laydi va ularning ma’naviy-axloqiy jihatdan rivojlantiradi.

2. Hayotiy voqealarni keyslarda shakllantirish tahlil qilish jarayoning qiziqarli bo‘lib o‘tishiga olib keladi. P. Sherement va G. Kanishenkolarning ta’kidlashicha turli kompaniyalar faoliyati to‘g‘risida tuzilgan keyslar talabalarda katta qiziqish uyg‘otadi. Agarda talabalar ichida o‘qishni tamomlagandan keyin ma’lum korxona, tashkilotlarda ishlashni rejalashtirgan talabalar bo‘lsa, o‘sha kompaniya, tashkilotlar faoliyati haqida keys tuzish maqsadga muvofiqdir. Yoki masalan “SAMSUNG” firmasi faoliyati to‘g‘risida tuzilgan keys o‘z uyida ushbu kompaniyada ishlab chiqarilgan maxsulot (texnika) mavjud bo‘lgan talabalarning qiziqishiga sabab bo‘ladi. [11]

Yana bir misol, mamlakatimizda futbolni rivojlantirish haqida tuzilgan keys futbolga qiziquvchilar orasida iliq kutib olinadi. Agarda keyslar talabalarning qiziqishlaridan kelib chiqmagan holda tuzilsa uning mazmuni tushunarsiz bo‘ladi, talabani fikrlashga undamaydi. Ushbu misollardan ko‘rinib turibdiki keyslarda real voqealik aks etsagina talabalar ongiga tez va oson yetib boradi.

Bir so‘z bilan aytganda keysdagi vaziyatlar mavjud holatlar asosida tuziladi, ya’ni keysdagi holatlar imkon qadar atrofda sodir bo‘layotgan muammolar asosida vujudga keladi. Qanchalik kundalik turmushdan uzoqlashilsa keys samaradorligi

shuncha kamayadi. Real voqealik va kundalik turmushdagi vaziyatlarni o'z ichiga olgan, ya'ni asos qilib olgan keyslardan foydalanish o'qituvchiga ham engilik tug'diradi. Shuningdek bunday keyslarda vaziyatda ko'rsatilgan kompaniya, tashkilot, ta'lim muasasalari, ijodiyot markazlari a'zolari yoki keys qahramonlari bevosita ishtirok qilishi mumkin.

3. Keysni ilmiylik va ko'rgazmali vositalar bezaydi. Keysni tuzishda uning har bir qismiga e'tibor berish kerak. Keysning tarkibida ko'rgazmali vositalar, ilovalar, statistik ma'lumotlar kabi manbalarning aks etishi uning mukammaligini belgilab beradi.

4. Keysni tuzishda ilmiy manbalar, ilmiy maqolalar, ilmiy risollar foydalanish lozim, bu o'z-o'zidan keysda ilmiy manbalarning bo'lishini talab qiladi. Keyslarni ishlab chiqish davomida ilmiy adabiyotlardan foydalanish unga katta talabchanlik va aniqlikni kiritadi, keysning ilmiyligini belgilab beradi.

5. Keyslar uchun to'ldiruvchi manba sifatida internet va uning resuslari kiritilgan. Internet o'zining keng doiradaligi, o'zgaruvchanligiva tezkorligi bilan farq qiladi. Shuning uchun ham keys tarkibida internet asosiy o'rinda turadi.

1.2. Pedagogika fanlarini o'qitishda Case – study texnologiyasini qo'llash

O'rta maxsus kasb-hunar kollejlarning o'quv dasturiga kiritilgan fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim mazmuni yanada boyitadi va bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyat bilan tanishtiradi, o'rgatadi. Ayniqsa O'rta Maxsus kasb-hunar kollejlarda o'qitilayotgan pedagogik fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalar tarkibiga kiruvchi keys-stadi texnologiyasidan foydalanib o'quv jarayonini tashkil qilish, bo'lajak mutaxassisga amaliy faoliyatni oldindan tahlil qilish imkoniyatini beradi, uni shu faoliyat ishtirokchisiga aylantiradi, xulosalarni o'zining nuqtai-nazarlari asosida qabul qilishga o'rgatadi. Ta'lim oluvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llashiga ko'maklashuvchi bu texnologiya ta'lim samaradorligini oshiradi.

Keys-stadi texnologiyani qo'llashdan oldin pedagogik fanlar tarkibiga kiruvchi "Pedagogika", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "Kuni uzaytirilgan guruhlarda ta'lim-tarbiya nazariyasi metodikasi", "Yoshlar tashkilotlari va ular bilan ishlash metodikasi" kabi fanlarni oldiga qo'yilgan maqsad vazifalarni chuqur o'rganish, tahlil qilish lozim. Har bir fanga texnologiyani joriy qilishdan oldin fanning dastur talablarini, ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan malaka, va ko'nikmalarni chuqur tahlil qilgan holda amaliy jarayonda qo'llash o'rinlidir. Har bir fan o'z oldiga ma'lum bir maqsad va vazifalarni qo'ygan holda o'quv rejasidan o'rin oladi. Shundagina keys-stadi texnologiyasi oldindan ko'zlagan maqsad va vazifalarinilarini to'liq bajara oladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida biz pedagogik fanlar tarkibiga kiruvchi "Pedagogika", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "Kuni uzaytirilgan guruhlarda ta'lim-tarbiya nazariyasi metodikasi", "Yoshlar tashkilotlari va ular bilan ishlash metodikasi" kabi o'quv fanlarining o'quv rejasi, fan dasturi maqsad vazifalarini, ta'lim oluvchi egallashi lozim bo'lgan malaka va ko'nikmalarni quyidagi tahlillar asosida keltirib o'tamiz.

Pedagogika fanni barcha fanlar tarkibining asosi, bir so'z bilan aytganda fanlar otasi hisoblanadi, bu fan orqali har bir bo'lajak pedagog mutaxassis nazariy, amaliy bilimlar bilan qurollanadi, kasbiy mahoratga ega bo'lib yetuk kadr sifatida shakllanadi. Jamiyatimizda yashayotgan har bir shaxsning har tomonlama kamol topishida bu fanning o'zni benihoya kattadir.

Pedagogika fanni asosan pedagogika kollejlarida o'qitilib borildi, o'quv rejasi boyicha umumiy o'quv soati 244 soatni tashkil qildi. Shulardan 12 soat nazariy, 34 soat amaliy, 12 soat seminar, 6 soat kurs ishi, 72 soat mustaqil ishi soatlariga bo'linadi. Pedagogika fani 4 bo'lim, 26 mavzu asosida dars jarayonlarida o'qitiladi.

Pedagogika fanni o'rganish natijasida o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:

- pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;
- pedagogik tushuncha va hodisalarning muhim belgilarini ajratib olish;

- o'qituvchining mashg'ulotlari, bolalar faoliyatini kuzatish, yozib borish va tahlil qilish;
- ta'limning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi xususiyatlarini aniqlay olish va amalga oshirish;
- o'qituvchilar ilg'or ish tajribalarini o'rganish va umumlashtirish;
- o'quvchilar bilimini nazorat qilish, baholayotganda ichki va tashqi jihatdan izohlash;
- sinfda ayrim guruhda o'quvchilarning o'zaro ijobiy aloqalarini shakllantirish;
- maktab ish hujjatlarini yuritish.

Shuningdek Pedagogika fanni o'rganish natijasida o'quvchilar quyidagi bilimlarga ham ega bo'lishlari kerak:

- O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi;
- barkamol shaxsni tarbiyalash yo'llari;
- ta'lim jarayoni mohiyati va mazmuni;
- ta'limni tashkil etish metod va yo'llari;
- dastur mazmunidan mashg'ulot uchun zarur bo'lgan qismni ajrata bilish va mashg'ulot uchun ishlanma tuzish.

Yuqorida keltirib o'tilgan bilim ko'nikma, malakalarni talabalarda rivojlantirish pedagogika fanni oldida turgan muhim maqsad va vazifalardandir. Bu jarayoni tashkil qilishda o'qituvchi va talaba faoliyatidagi hamkorlik katta ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, inson barkamolligi ko'proq uning ma'naviy dunyosiga qarab belgilanadi. Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimizga, tarixiy an'alarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. "Tarbiyaviy ishlar

metodikasi” fani tarbiyaviy ishlarning davr talabiga javob bera oladigan eng ilg‘or usullarini izlab topish, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy professional xususiyatlarini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Shuning uchun ham bu fan pedagogik fanlar tarkibida o‘quv jarayonlariga kiritilgan.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi o‘quv fanni o‘quv reja bo‘yicha umumiy 51 soatni tashkil qiladi, shulardan 24 soat nazariy, 12 soat amaliy, 15 soat mustaqil ta’limni soatlariga ajratiladi. Fanni o‘zida 7 bob, 7- mavzuni mujassamlantiradi.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi o‘quv fanni o‘rganish natijasida o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:

- ma’naviy – ma’rifiy yo‘nalishdagi adabiyotlarni tahlil qilish;
- tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda asosiy omillarni ajratish;
- o‘qituvchilar ilg‘or tajribalarini o‘rganish va umumlashtirish;
- o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash;

Pedagogika fanni o‘qitishda keys –stadi texnologiyasini qo‘llashning asosiy maqsadi: Talabalar jamosida sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, shaxsning o‘sishi, shakllanishi va tarbiyasida zarur bo‘lgan omillarni tahlil qilish, tarbiyaning o‘ziga xos usullarini o‘rgatishdan iboratdir. Keys-stadi texnologiyasini qo‘llash orqali talabalarda quyidagi bilim, ko‘nikma, malakalar rivojlanadi.

O‘quv faoliyatidan kutilayotgan natijalar

1. Talabalar kasbiy jarayonda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldini olish bo‘yicha eng to‘g‘ri va ta’sirchan qarorlarni qabul qilishni o‘rganadilar.

2. Talabalarining kasbiy jarayonda sodir bo‘lgan muammolarini har tomonlama chuqur o‘rganish, asosli xulosalar qilish malakalari rivojlanadi.

3. Ularda muammoni hal qilishga ilmiy yondashish ko‘nikmalari shakllanadi.

4. Talabalar turli manbalar ustida mustaqil tahliliy faoliyatlarni tashkil qilishni o‘rganadilar. Manbalar tahlili davomida o‘zlarining shaxsiy fikr va xulosalarini shakllantiradilar.

5. Muammoni keng qamrovda, unga ta'sir qiluvchi barcha omillarini e'tiborga olib, atroflicha o'rganish lozimligini bilib oladilar.

6. Talabalarning sodir bo'lgan vaziyat oqibatlarini bartaraf qilish bo'yicha malakalari tarkib topadi.

7. Talabalarning hamkorlikda sermahsul faoliyat yuritish malakalari, istiqbolli natijalar yo'lida aqliy-intellektual imkoniyatlarini birlashtirish, mas'uliyatlilik, ijtimoiy faollik, muloqatchanlik, moslashuvchanlik, pedagogik mas'uliyat kabi sifatleri tarbiyalanadi.

8. Talabalar keng mantiqiy fikrlashni o'rganadilar, ularning dunyoqarashi kengayadi, kasbiy axloq meyorlari to'g'risidagi tushunchalari tarkib topadi, bo'lg'usi kasbiy faoliyatlarni to'g'ri tashkil qilishni o'rganadilar.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun talabalar quydagi bilim ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim:

Talaba bilishi kerak: o'quvchilar jamoasi, jamoa ichida ishni tashkil qilish, o'qituvchining pedagogik muloqat uslublari, sinf rahbarining ish uslublari, ota-onalar bilan hamkorlik uslublari.

Talaba amalga oshirish kerak: mavzuni mustaqil o'rganadi, muammoning mohiyatini aniq tushunib oladi, uning kasbiy, ijtimoiy, ma'naviy ahamiyatlilik jihatlarini belgilab oladi, o'z shaxsiy tanqidiy fikrlarga ega bo'lib, mantiqiy xulosalar qilishi, ilmiy-nazariy hamda amaliy manbalar ustida mustaqil ishlashi va natijalarini umumlashtirishi lozim.

Talaba ega bo'lmog'i kerak: muloqatchanlik, hamkorlikda ijodiy ishlash, mustaqil tadqiqot vazifalarni bajarish, hisobat, prezentasiyalarni tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lmog'i kerak.

Turi va manbalaridan kelib chiqqan holda keysning tavsifnomasi: Keys ta'lim-tarbiya beruvchi keys turiga kiradi, keysning asosiy manbasi pedagoglarning ish tajribasi davomida yuz bergan muammolar. Keysning asosiy ob'ekti shaxsga yo'naltirilgan. Bu syujetli, prognostik, ko'p sub'ektki keys bo'lib, muammoli vaziyat asosida tuzilgan. Keys jamoa orqali munozarani tashkil qilishga mo'ljallangan bo'lib, didaktik maqsadlarga ko'ra mavzu bo'yicha talabalarning

bilim, ko‘nikma, malakalarni mustahkamlash, ularni amaliy faoliyatga yo‘naltirishni nazarda tutadi.

1.3. Multimedia asosida o‘quv jarayonini tashkil etish

Ma‘lumki, har bir shaxsning ma‘naviy kamoloti unda amalga oshiriladigan ta‘lim-tarbiya ishlarining mazmuni shakl va metodlariga bog‘liqdir. Shu boisdan ta‘lim-tarbiya jarayonini pedagogik talqin qilish, uning samarali kechishini ta‘minlash zarurati yuzaga keldi. Prezidentimiz tomonidan milliy, o‘ziga xos yondashuv tarzi belgilab berildi. “Ta‘lim – O‘zbekiston xalqi ma‘naviyatiga yaratuvchanlik, faollikni baxsh etadi. O‘tib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo‘ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o‘tadi. Yoshlar, ularning iqtidorligi va bilim olishga chanqoqligidan ta‘lim va ma‘naviyatni tushunib yetish boshlanadi”⁴.

Multimedia vositasini ta‘lim sohasiga tatbiq etish uchun uning elektron manbalarini ishlab chiqish zarurati tug‘iladi. Bunday ta‘lim manbalariga elektron darsliklar, qo‘llanmalar, metodik ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar, Internet materiallari, axborot-resurs markazlari kiradi.

Multimedia vositasining bir qancha ta‘riflari mavjud, ularning ayrimlarini keltiramiz. Jumladan, multimedia - (inglizcha-yunoncha multimedia - o‘rta vositalar) bu –axborot informasiya uzatishning xilma-xil vositalarini qamrab oluvchi texnologiya bo‘lib, unda muayyan dasturlar va vositalar mavjud bo‘ladi.

Multimedia texnologiyasi – informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animasiya (obyektlarning fazodagi harakati) samaralari asosida o‘quv materiallarini tarbiyalanuvchilarga yetkazib berishning mo‘ljallangan ko‘rinishidagi texnologiyasidir.


⁴ Karimov I.A. Istiqloq va ma‘naviyat. T.: O‘zbekiston, 1994. –b. 9.

Multimedia – bu maxsus texnologiya bo'lib, dasturiy va texnik moddiy ta'minot asosida kompyuterda bir vaqtning o'zida matnli, tasviriy axborotni tovushli va harakatli holda ifodalash imkoniyatidir.

Multimedia – kompyuter tizimida matn, tovush, videotasvirni va turli animasiyalarni mujassamlashtirish imkonini beruvchi zamonaviy axborotlar texnologiyasidir.

Multimedia vositalariga multimedia vositalarini yaratishda foydalanadigan audiokolonka, mikrofon, videoproyektor, Web kamera, TV tuner kabi uskunalar, dasturlar va amalda foydalanishga mo'ljallangan materiallar kiradi.

Multimedia vositalari pedagogik nuqtai nazaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiyasi jarayoniga tatbiq etilishida kompyuter asosida yangicha yondashuv hisoblanadi. Kompyuterli texnologiyalar o'quvchilarning faolligini oshirishda, o'rganiladigan o'quv materiallarining hajmini ko'paytirishda va ta'lim jarayonining samaradorlik darajasini oshirishda muhim vosita sifatida amalga oshirilmoqda. Unda kompyuter monitoriga qarab ekranda ko'rsatiladigan materiallardan foydalanib bilim olish, kompyuter savodxonligini shakllantirish, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Multimediali kompyuterli texnologiyada ko'rgazmali vositadan tashqari ta'lim beradigan manba sifatida qaraladi. Chunki o'rganiladigan materiallar oldindan kompyuter xotirasiga joylashtirilgan bo'ladi. O'qituvchi qaysi mavzuni o'quvchilarga o'rgatmoqchi bo'lsa, kerakli ma'lumotlarni monitor ekraniga chaqirib oladi va namoyish etiladigan materiallar bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Shu asosda ular mavzu yuzasidan namoyish etilgan materiallarni o'rganib boradilar. Bunda o'quvchilar kompyuter bilan yetarli darajada qo'nikma hosil qiladi. Shu bilan birga kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning kompyuterdan foydalanish jarayonida tafakkuri rivojlanadi, bilim olishga qiziqishi ortadi va dunyoqarashi kengayib boradi. Multimedia texnologiyasining ta'lim-tarbiya jarayonidagi samaradorligini quyidagi shaklda ifodalash mumkin:



Multimediadagi matn qisqa, tushunarli va aniq bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi uni nafaqat o'qish, balki yod olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ovoz o'qish yoki turli vositalar tovushdan iborat bo'ladi. Bunda ovozning jalb qilish xususiyatiga, ya'ni intonatsiyali, musiqali yoki hayajonli bo'lishi katta ahamiyatga ega. Jonli harakat odam, narsalar yoki predmetlarning xatti-harakatidan tashkil topadi. Undagi yagona talab-jonli harakatlarning tarbiyaviy va estetik xususiyatiga ega bo'lishidir. Grafik tasvirlar muayyan mavzuni tasavvur qilish uchun hosil qilinadi. Bu hol xotirani mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Multimedia vositalaridan o'qitish jarayonida foydalanish o'qitish sifatini va samarasini oshirishning eng qulay usullaridan biri bo'lishiga qaramasdan, unga mos Dasturlar bo'lmasa yoki ulardan foydalanilmasa kutilgan samarani bermaydi. Shuning tuchun har bir o'quv fanining xususiyatidan kelib chiqib, o'quv materialining asosiy va muhim elementlarining o'quvchilar o'zlashtirish jarayoniga mos kelishi, dastur vositalari ekrandagi tasvirlarning rangiga, ma'lumotlarning tuzilishiga, obyektlarning ko'rinishiga, tovushlarning qulayligini e'tiborga olishni nazarda tutadi.

Hozirda multimedia kundalik faoliyatimizda juda ko'p ishlatilmoqda. Ta'lim-tarbiya sohasida multimedia texnologiyalarini tatbiq etish uchun yuqorida berilgan fikrlarini umumlashtirib multimediaga shunday ta'rif berish mumkin. *Multimedia*-bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari yordamida axborotning an'anaviy va orginal turlari asosida o'quv materiallarini tinglovchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir.

Multimedia xozirda juda tez rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyalardan bo'lib, u quyidagi xususiyatlarga ega:

- ♣ An'anaviy axborot turlarini: matn, jadval, turli xil bezaklar hamda orginal axborot turlarini: nutq, musiqa, telekadrlar, videofilmlardan parchalar, lavhalar, animasiya ko'rinishidagi axborotlarni o'z ichiga oladi.
- ♣ Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy protessorning harakatchanligini, ma'lumotlarni uzatish shinasining o'tkazish qobiliyatini, tezkor video va xotira hajmini, katta sig'imli tashqi xotirani, kompyuter kirish - chiqish kanallari bo'yicha almashinuv tezligini taxminan ikki barobar oshirish talab etiladi;
- ♣ "inson-kompyuter-inson" interaktiv muloqotining yangi darajasining ta'minlanishi, muloqot jarayonida foydalanishda ancha keng va har tomonlama axborotlarni olishga ega bo'lish.

Hozirgi amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari yordamida ta'lim sohasida o'quvchilarni o'qitish ikki baravar samarali bo'lmoqda. Ma'lumki, eshitgan materialning to'rtidan bir qismi xotirada qoladigan bo'lsa, o'quvchilarga berilayotgan materiallarni video orqali amalga oshirsak, axborotni xotirada saqlanib qolishi va tasavvur qilish imkoniyati 35-70 % gacha oshadi. Shuningdek, mazkur o'quv dasturlar audio video va grafika ko'rinishida mujassamlashtirilgan holatda o'quvchilarga berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 70-95 % ga oshishi kuzatimoqda.

Ta'lim sohasida multimedia vositalari yordamida o'quvchilarga bilim berish afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Ta'lim jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyatining mavjudligi;

- Ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqining yanada oshishi;

- Dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyatiga erishilishi;

- Olingan bilimlarning kishi xotirasida uzoq muddat saqlab qolishi va uni amaliyotda qo'llash mumkinligi.

Multimediani ta'lim jarayoniga qo'llashning ayrim muammolari ham mavjud, jumladan:

- * Ta'lim uchun zarur bo'lgan o'quv materiallarini hamda boshqa zaruriy ko'rsatmalarni qo'llanma shaklida o'quv kom'pyuter dasturlari ko'rinishida ishlab chiqish;

- * Ishlab chiqilgan o'quv kom'pyuter dasturlari uchun multimedia elementlarini qo'llash.

Multimediali o'quv materiallarini ishlab chiqishda hozirdan Respublikamizda ma'lum bir ishlar qilinmoqda. Bunga yetakchi mutaxassislar jalb qilingan va o'quv materialari ta'lim yunalishlari bo'yicha yaratilmoqda. Multimedia texnologiyalarini ta'limda qo'llash uchun quyidagi texnik ta'minot zarurdir:

- Kamida 80486 mikroprosessorli shaxsiy kompyuter;
- Mikroprosessorning taqiddli chastotasi 66 MGs bo'lishi kerak;
- Operativ xotira 4 Mg bo'lishi kerak;
- Vinchestrning xajmi 400MB bo'lishi kerak;
- 3.5 dyumli disk yurituvchisi;
- 2 tugmati "sichqon" tipidagi manipulator;
- 101 tugmali klaviatura va DIN standarti bo'yicha ulash uchun bo'linma;
- 640x 480 peksel (256 rang bo'lganda) yoki 800x600 peksel (16 rang bo'lganda) grafik rejimini ta'minlay oluvchi VGA tipidagi diskli va adabetr;
- Kompakt disklar uchun CD ROM qurilmasi;

- Kamida parallel ikkita yo'nalishli 1 ta interfeys;
- Shaxsiy kompyuterga ulash mumkin bo'lgan bo'sh telefon yo'nalishi yoki ovoz kuchaytirgich;
- Kirish va chiqish MIDI porti;
- MPK (Multimedia Personal Kompyuter) bilan mos keluvchi audiadapter.

Qayd etilgan talablar multimedia ilovalarini ishlatish imkonini beradi.

Video yoki audio multimedia vositalarini kompyuterda juda ko'p dasturlar orqali ishlatiladi. Video, audio bila ishlovchi dasturlar qatoriga, jumladan Vindovs Media Player, Vinamp va boshqalar kiradi. Vindovs Media Player dasturini ishlatishni ko'rib o'tamiz. Vindovs o'rnatilgan barcha kompyuterlarda Vindovs Media Player dasturi Vindovs bilan birgalikda o'rnatilgan bo'ladi. Vindovs Media Player dasturini ishga tushirish uchun Vindovsning Pusk tugmasi bosiladi, so'ngra bosh menyudagi Programme menyu ostidan Standarti qismga kiriladi va Vindovs Media Player ishlatiladi.

O'zbekiston milliy ta'lim-tarbiya jarayonida multimedia vositalarini qo'llash tajribasi shakllanib bormoqda. Negaki bu ayni vaqtda zamon talabidir.

Taraqqiy etib borayotgan informatsion vositalar jamiyatimizda ijtimoiy rivojlanishining asosini belgilovchi an'anaviy imkoniyatlar bilan bir qatorda insonlarning qobiliyati, tashabbuskorligi, ishga ijodiy yondashishi, intellektual faoliyati, mustaqil ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishi kabi omillar tashkil etadi. Katta hajmdagi ma'lumotni saqlash, uzatish, qabul qilish bilan bog'liq axborot yaratish jarayoni inson faoliyatini turli soxalarida kompyuter texnologiyalarini rivojlantirishlarini ko'zda tutadi.

Inson tafakkuri shu qadar taraqqiy etib bormoqdaki, bunda texnikalashtirish va kompyuterlashtirish jarayoni nafaqat ishlab chiqarishning turli soxalari, balki madaniyat va ta'lim soxalariga ham dadil kirib bormoqda. Kompyuter texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi ta'lim jarayonini yangi bosqichga ko'tardi. Bu o'z o'rnida ta'lim mazmunini, metod va shakllarini qayta ko'rib chiqish uchun yangi bilim hamda ko'nikmalar bilan yanada boyitish zaruriyatini tug'dirdi.

Bugungi kunda jamiyatimizning turli sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislarning professionallik darajasi ularning kompyuter texnologiyalarini egallaganligi bilan ham belgilanadi. Bu hol zamon talabiga aylanib qoldi. Mazkur talabga javob berish uchun mutaxassislarni tayyorlash jarayonida, ya'ni ta'lim muassasalarida yetarli baza yaratilishi kerak.

Hozirgi vaqtda ta'lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslarini yaratish, ularni tasniflash, metodik ahamiyatini belgilash kabi dolzarb muammolar ustida ish olib borilmoqda. Yangi pedagogik texnologiyalar deganda, an'anaviy va noan'anaviy metodlar bilan bir qatorda ta'limni kompyuterlashtirish ham tushuniladi. Shu manoda tobora shakllanib borayotgan kompyuter-axborot madaniyati axborotni yetkazish va qabul qilishda yangi munosabatlarni vujudga keltiradi, fikrlashning yangi turini xosil qiladi. Bunda inson inofrmation koinot bilan o'zaro muloqotga kirishadi. Telekommunikasiya (telefon, televideniye, radio) tarmoqlarining kompyuter tarmoqlari bilan birikishi yagona jahon axborot makonini-multimediani tashkil etadi. Ushbu makonning eng muhim qismi Internet tarmog'i ayniqsa uning giper-media xizmatlari (Vorl-Vide Veb), gipermediapochta, videokonferensiyalardir.

Multimedia ("ko'p muhitlik" degan ma'noni bildiradi)-zamonaviy axborotlar texnologiyasi bo'lib, kompleks tushunchani anglatadi. Multimedia axborotning turli ko'rinishlari-matn, jadval, grafika, nutq, animatsia, multiplikatsiya), video tasvir, musiqa yordamida axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishash va uzatish vazifalarini bajaradi. Multimedia "mnson-kompyuter" interaktiv (diologig) muloqotning yangi, takomillashgan pog'onasi bo'lib, unda foydalanuvchi juda keng va har tomonlama axborot oladi. Multimedia vositalaridan xordiq chiqarish, ta'lim olish va reklama kabi sohalarida foydalaniladi. Multimedia vositalari asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga ta'lim berish xozirgi kunning dolzarb masalalaridandir.

1.4. Auto Play Media Studio dasturi interfeysida ishlashni o'rganish

Keyingi yillarda multimedia hujjatlarini yaratishga oid juda ham ko'plab dasturiy ta'minotlar ishlab chiqilgan. Ulardan biri AutoPlay dasturidir.

Istalgan fayl yoki fayllar to'plamini bitta muhitga birlashtirish, qolaversa, CD yoki DVD disklar uchun Autorun-meniyusi hosil qilishda Autoplay Media Studio eng kuchli vizual paket hisoblanadi.

Multimedia texnologiyalariga asoslangan amaliy dasturlarni yaratish uchun Autoplay Media Studio dasturidan foydalanish foydalanuvchilar uchun juda oson va qulay interfeysni taqdim etadi.

Autoplay Media Studio bilan ishlashda deyarli dasturlash ishlari talab qilinmaydi. Foydalanuvchi faqat turli dizaynli dasturiy muhitni tanlash uchun bir nechta tayyor shakllardagi loyiha shablonlaridan foydalanishi mumkin.

Bunda amaliy dastur muhitini dizaynga boy holatga tashkil etish uchun Autoplay dasturiy vositasi tarkibida tayyor obyektlar mavjud bo'lib, ular tarkibiga buyruq tugmasi, tovush kuchaytirgichi, fayllarni printerdan bosmaga chiqarishni ta'minlovchi, Web-saytlarni ochuvchi va ularga murojaatni amalga oshirib beruvchi qator funksional obyektlarni kiritish mumkin.

Amaliy dastur uchun grafik qobiqlarni yaratish, uni avtomatik ishga tushirish uchun Autoplay Media Studio barcha kerakli fayllarni o'zi yaratadi. Foydalanuvchilar zimmasiga esa faqat qattiq disk va kompakt diskni yozish uchun tayyor loyihalarni shakllantirish vazifasi qoladi.

Dastur foydalanuvchilarga obyektlarni o'zaro bog'lashni amalga oshirishga yordam beradigan yuzlab vositalarni taqdim eta oladi.

Autoplay Media Studio dasturi muhitida Visual Basic, Visual C++, Java, Macromedia Flash kabi qator tizimlarda yaratilgan hujjatlarni ham bimalol qayta ishlash mumkin.

Dastur yordamida animatsiyalanuvchi menyuni, kataloglar daraxtini, ma'lumotlar bazasini va shunga o'xshash obyektlarni nafaqat tez yaratish, balki ularni boshqarish ham mumkin.

Avtomatik ishga tushuvchi oynalarni o'zining kutubxonasidagi "niqob"lardan foydalangan holda ixtiyoriy shaklda (formada) yaratish mumkin. Bunday "niqob" sifatida .jpg, .bmp va .png kabi formatdagi fayllardan foydalanilsa ham bo'ladi.

Qolaversa, ma'lumotlarni CD uchun tayyorlagan holda uni dasturning o'zidan turib, CD yoki DVDga yoza olishi Autoplay Media Studio dasturi naqadar keng imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tayyor loyiha bunda .exe kengaytmali fayl sifatida o'zi ochiluvchi arxiv ko'rinishda yoki qattiq diskdagi alohida papkada shakllantirilishi mumkin.

Bundan tashqari, dasturga matnni orfografik tekshirish imkoniyati ham kiritilgan. Dasturning bu xossasi uning Label, Paragraph va Button kabi obyektlari bilan birga ishlaydi. Agar dastur kompyuterga to'liq versiya bilan o'rnatilgan bo'lsa, matnni orfografik tekshirish uchun uning kutubxonasida juda katta hajmdagi lug'atlar bo'lishi mumkin.




1.3 – rasm. AutoPlay dasturi ko'rinishi

Shunday qilib, AutoPlay Media Studio 7.0 ning yangi versiyasi quyidagi imkoniyatlarga ega holda iste'molga chiqarilgan: [5]

1. Avtomatik ishga tushuvchi xususiy menyu, interfaol taqdimotlar, multi-media-ilovalar, sanoqli daqiqalarda dasturiy ta'minotlarni yaratish;
2. Loyihaga turli-tuman fotografiya, musiqa, video, animatsiya, matn va boshqalarni biriktira olish xususiyati;
3. Web-ilova yaratishga mo'ljallangan mukammallashgan instrumentlar;
4. XML, SQL va shifrlash mexanizmlari bilan ishlay olishi;
5. RTF-formatli hujjatlar bilan ishlay olishi;
6. Slayd-shou bilan ishlash imkoniyati;
7. Matn rangini o'zgartirish uchun RadioButton obyektining mavjudligi;
8. Bosmaga chiqarishning kengaytirilgan funksiyasi;
9. Obyektlarni formatlash imkoniyati;
10. Kalit so'zlar yordamida qidiruv tizimining mavjudligi;
11. CD, DVD kabi kompakt disklarga yozish imkoniyati va hokazo.

AutoPlay Media Studio ishga tushirilgach, avvalo loyiha bilan bog'liq bir nechta buyruqlarni o'z ichiga oluvchi muloqot oynasi yuzaga keladi (1-rasm):



1.4-rasm.AutoPlay dasturining ishga tushirilishi

Bu muloqot oynasida quyidagi to'rtta taklif ilgari surilgan bo'ladi:


- 1) Create a new project (Yangi loyiha yaratish);
- 2) Open an existing project (Yaratilgan loyihalardan birini ochish);

- 3) Restore last open project (Oxirgi ishlangan loyihani ochish);
- 4) Exit AutoPlay Media Studio (Dasturdan chiqish).

Agar AutoPlay Media Studioning ruscha varianti o'rnatilgan bo'lsa, u holda taklif rus tilida, inglizcha varianti o'rnatilgan bo'lsa, u holda taklif ingliz tilida bo'ladi.


AutoPlay har bir buyruq tugmasi funksiyasi va unga mos scriptlar uchun tayyor kodlar to'plamini ham taqdim etadi. Bu tayyor kodlardan qulayroq foydalanish uchun dasturning ingliz tilidagi varianti bilan ishlagan ma'qul.

Shunday qilib, yuqoridagi taklifga binoan biz "Creat a new project" bandini tanlasak, u holda bir nechta yangi loyiha shablonlarini taklif etishdan iborat quyidagi muloqot oynasi yuzaga keladi (1.2-rasm):



1.5-rasm. Loyiha shablonlarini tanlashga oid muloqot oynasi

Biz yaratayotgan ilovamiz tabiatiga qarab, muloqot oynasida mavjud loyihalardan birini tanlashimiz yoki o'zimiz istagan yangi loyihani tashkil qilishimiz mumkin. Quyida "Audio" deb nomlangan loyiha tanlangan (1.3-rasm):



1.6-rasm. “Quizze” loyihasining tanlanishi

AutoPlay dastur oynasi quyidagi tuzilmaga ega [12]:

1. Dastur oynasining darlavha satri.
2. Dastur oynasining menyu satri.
3. Instrumentlar paneli satri.
4. Project Explorer muloqot oynasi.
5. Properties muloqot oynasi.
6. Holat satri.

Dastur oynasining sarlavha satrida loyiha nomi, dastur nomi va oynani boshqarish elementlari joylashgan. Oynaning menyu satrida quyidagi menyular joylashgan:

File. Bu menyu orqali yangi loyiha oynasini ochish, mavjud loyiha oynasini ochish, loyihani xotiraga saqlash, loyihani export qilish, hujjat xossasini o'zgartirish va dasturdan chiqish kabi ishlarni bajarish mumkin.



Tools. Ba’zida AutoPlay dasturining galeriyasidagi mavjud buyruq tugmalari dizayn jihatidan yetarli bo’lmay qolishi mumkin. Shunday paytlarda ushbu menyuning “Button Maker” bandiga murojaat qilib yangi dizayndagi buyruq tug-malarini yaratish mumkin.



Bundan tashqari loyiha uchun ssenariy kodini yozish ham shu menyuda amalga oshiriladi.

Publish. Bu menyu yordamida AutoPlayda tayyor holatga kelgan amaliy dasturni ishlatib sinovdan o’tkazish va kompilyatsiyalash mumkin.



Edit. Bu menyu orqali oxirgi bajarilgan amalni bekor qilish yoki takrorlash, ajratilgan obyektни kesib olish, uning nusxasini olish, boshqa joyga qo’yish, o’chirish, sahifa dublikatini hosil qilish, bir turga mansub obyektlarni

Align. Bunda obyektning sahifaga (ishchi sohaga) nisbatan koordinatalar bo’yicha, masalan, gorizontal, vertikal, va boshqa o’lchamlarga nisba-tan joylashuv holatini belgilab olish mumkin

Page. Bu menyu loyihadagi sahifalar uchun xizmat qiladi. Masalan, loyihaga yangi sahifa qo’shish, mavjud tanlangan sahifani o’chirish, mavjud sahifaning dublikatini (aynan nusxasini) hosil qilish, sahifaning xossasiga oid muloqot oynasini chaqirish kabi ishlarni bajarish mumkin.

Object. Bu menyuda 24 ta obyektни sahifaga qo’yish imkoniyati mavjud bo’lib, shundan 17 tasi konstruktorlik tizimida ishlatiladigan standart ob-yehtlar bo’lsa, qolgan 7 tasi plugin tarzida tashkil etilgan obyektlar bo’lib, ular “Plugins” buyrug,i or-qali sahifaga qo’yiladi, masalan, Calendar, Windows stilidagi “Win-Button” nomli buyruq tugma-si, Slider va hk. Shuningdek,




“Properties” buyru-g,idan foydalanib, sahifada belgilangan obyektning xossalari oynasini hosil qilish imkoniyati mavjud.

Project. Loyihani har tomonlama mukammal ishlash uchun imtiyozli yordam ko'rsatadigan ajoyib menyu hisoblanadi. Uning “Settings” bandiga murojaat qilib, loyihaga oid xossalarni o'zgartirish, “Menu Bar...” bandiga murojaat qilib, yaratilajak

amaliy dastur oynasini xususiylar menyu bilan ta'minlash, “Global Functions...” bandi orqali loyihadagi barcha sahifalarga birdek tegishli bo'lgan funksiya-qism dasturlarini yozish mumkin. Shuningdek, turli multimedia

hujjatlarini va pluginlarni joylashtirishni ham shu menyuda muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin.



View. Bu menyu asosan amaliy dastur qurish jarayonida AutoPlay dastur oynasining tashqi ko'rinishini turli jihozlar bilan boyitishga xizmat qiladi, masalan, turli instrumentlar panelini ko'rinadigan qilib qo'yish (ToolBars), turli muloqot oynalarini dastur oynasida akslantirib qo'yish (Panels), sahifa parametrlarini belgilash uchun chizg'ich (Ruler) va to'r (Grid) hosil qilish, bir sahifadan boshqa sahifaga tez o'tish (Find Page) va boshqa ishlarni bajarish mumkin.

AutoPlayda qo'llaniladigan obyektlar

AutoPlayda har bir loyiha uchun bir yoki bir nechta sahifalar to'plami taqdim etiladiki, bu sahifalar bilan ishlaganda bir nechta obyektlardan foydalanish mumkin. Bu obyektlardan har birining alohida funksiyalari mavjud bo'lib, ular orqali dasturni boshqarishda foydalanuvchi uchun muloqot interfeysini yaratish alohida ahamiyat kasb etadi.

Obyektlar va ularning funksiyalari

1. Button Buyruq tugmasi. Bir nechta rangdagi turli variantlari mavjud. Asosan boshqaruv funksiyasini bajaradigan buyruqlar bu tugmaga biriktiriladi.
2. Label Yozuv maydonchasi. Ishchi sohadagi yozuvlar shu obyekt bilan beriladi. Yozuv gorizontal va vertikal ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.
3. Paragraph Bir nechta satrdan iborat matnni o'z ichiga oladigan yozuv maydonchasi. Ko'rinish sohasiga sig'may qolgan pastdagi yozuvlar uning o'ng tomonidagi lift yugurdagi orqali o'qilishi mumkin, .txt va .quiz-kengaytmali matn fayllarini yuklab olib o'qitish ham mumkin.
4. Image Turli formatdagi ikonkalar va rasmlarni ishchi sohada joylashtirish uchun ishlatiladi.
5. RichText WordPad, Блокнот, MS Word kabi matn muharrirlarida tayyorlangan .txt va .rtf-fayllarni yuklash va uni samarali o'qish imkonini beradigan yozuv maydoni.
6. Hotspot Shaffof holatdagi to'g'ri to'rtburchak ko'rinishdagi faollashtiruvchi obyekt. U orqali sahifada bo'sh turgan sohani biror funksiyani bajaruvchi faol sohaga aylantirish mumkin.
7. Video Video fayllarni (.avi, .mpg, .wmv, mp4, ...) ishchi sohaga joylashtirish va turli o'lchamlarda ko'rish uchun foydalani-ladigan obyekt.
8. Flash Macromedia Flashda tayyorlangan .swf-fayllarni ishchi sohaga joylashtirish va unda foydalanish imkonini beradigan obyekt.
9. Web Bu obyekt orqali .htm, .mht kengaytmali fayllarni ishchi sohaga Web-sahifa orqali joylashtirish va ko'rish mumkin.
10. SlideShow Bir nechta grafik fayllarni bu obyekt orqali yuklab olish va ma'lum vaqt oralig'ida ketma-ket slayd ko'rinishida namoyish etish mumkin.
11. Input Dasturga parol qo'yish yoki klaviaturadan kiritiluvchi biror ma'lumotga ehtiyoj sezilganda mazkur obyektidan samarali foydalaish mumkin.
12. CheckBox Bu obyekt orqali ishchi sohada e'lon qilingan bir nechta variantli ma'lumotlardan bir nechtasini tanlash va jarayonni davom ettirish mumkin.

13. RadioButton Bu obyekt orqali ishchi sohada e'lon qilingan bir nechta variantli ma'lumotlardan faqat bittasini tanlash va jarayonni davom ettirish mumkin.

14. ListBox Ishchi sohaga ro'yxat shaklidagi ma'lumotlarni joylashtirish va ulardan birini tanlash orqali jarayonni davom ettirish imkonini beradigan obyekt.

15. ComboBox Ishchi sohaga ro'yxat shaklidagi ma'lumotlarni "yashirin" tarzda joylashtirish va ulardan birini tanlash orqali jarayonni davom ettirish imkonini beradigan obyekt.

16. Tree Ma'lumotlarni daraxt ko'rinishida ishchi sohada tasvirlash imkonini beradigan obyekt.

17. Progress Vaqtga bog'liq jarayonni vizual tarzda ishchi sohada aks ettiruvchi obyekt. Xususan, ko'p o'lchamli fayllarni nusxalash-da, o'chirishda, xotiradan katta joy egallovchi dasturni ishga tushirishda jarayonning kechishini bu obyekt orqali vizual tarzda kuzatib turish mumkin.

Bu obyektlar sichqoncha yordamida dastur galeriyasidagi tayyor to'plamdan olib qo'yiladi. Multimedia hujjatlarini tayyorlash, uning dasturlanuvchi qismlari uchun scriptlar yozish, tayyorlanayotgan amaliy dasturni boshqarish interfeysini yaratishda bu obyektlar dasturchiga imtiyozli yordam ko'rsatadi. AutoPlayning ajoyib xususiyatlaridan yana biri shundaki, bu obyektlar xossalarini tanlash uchun maxsus xossalar panelini ham dasturchiga taqdim etadi va u orqali bir qiymatli xossalar qiymatidan samarali foydalanish mumkin [8].

1-jadval.

<i>Nº</i>	<i>Obyektlar</i>	<i>Xossalari</i>	<i>Funksiyalari</i>
1.	Button	Settings	Bu xossasiga binoan, buyruq tugmasi fayli-ning nomi, rangi, shrift turi va o'lchami, sa-hifada joylashuv holati, stili va matnning obyektga nisbatan pozitsiyasi belgilanadi.
		Attributes	Bu xossaga binoan, buyruq tugmasinig nomi, sahifadagi pozitsiyasi, ko'rinish va yashirin

			holati, avto-o'lchami, izoh matni, obyekt usti-da kursor holati belgilab olinadi.
		Quick Action	Bu xossaga binoan, buyruq tugmasi sichqoncha chap tugmasi bosilganda (Click hodisasi ishlatilganda) uchun 10 ta funksiyadan bittasi bajariladi. Bu funksiyalar quyidagicha nomlanadi: Show Page (loyihadagi bir nechta sahifadan bittasi ochiladi), Run Program (exe-kengaytmali faylni ochadi), Open Document (Word, Excel va shunga o'xshash muharrir hujjatlarini ochadi), Print Document (Word, Excel va shunga o'xshash muharrir hujjatlari-ni printerdan chiqaradi), Send E-mail (ko'rsatilgan elektron pochta manziliga xabar yuboradi), View Website (Web-sahifani ko'rishga imkon beradi), Explore Folder (Papka provodnigini ochadi), Play Multimedia (multimedia hujjatlarini ishga tushiradi), Play/Pause Background Music (fon uchun qo'yilgan musiqani ishga tushiradi va pauza beradi), Exit/Close (joriy dastur bilan ishni tugatishni ta'min-laydi).
		Script	Quick Action ga ekvivalent xossa bo'lib, undan farqi shundaki, Quick Action orqali buyruq tugmasiga faqat bitta funksiyani biriktirish mumkin va bu funksiyalar albatta standart 10 ta funksiyalardan biri bo'lishi shart Script xossasiga binoan esa bitta buyruq tugmasiga bir vaqtda bir nechta funksiyalarni biriktirish mumkin. Bunda funksiyalar soni 10 tadan ko'ra

			ko'proq songa ega. Script quyidagi hodisalar uchun yoziladi: · On Click (sichqoncha chap tugmasi bir marta bosib qo'yib yuborilgandagi holat); · On Right Click (sichqoncha o'ng tugmasi bir marta bosib qo'yib yuborilgandagi holat); · On Enter (klaviaturadagi Enter tugmasi bosilgandagi holat); · On Leave (sichqoncha ko'rsatkichi obyekt ustiga keltirilganda ro'y beradigan holat).
--	--	--	---

II – BOB. INTERFAOL USULLARDAN PEDAGOGIKA FANLARINI O‘QITISHDA MULTIMEDIALI DASTUR ISHLAB CHIQISH TEXNOLOGIYASI

2.1. Pedagogika darslarini o‘qitishning asosiy bosqichlari

An‘anaviy dars va uning asosiy bosqichlari.

An‘anaviy dars o‘tishning turli xil tuzilmalari mavjud bo‘lib, uning eng tarqalgan tuzilmasini e‘tiboringizga havola qilamiz. quyida an‘anaviy dars berishning bosqichlari haqida qisqacha to‘xtalamiz. Ma‘lumki, an‘anaviy darsning quyidagi bosqichlari mavjud:

1. *Tashkiliy qism* – salom-alik qilish, davomatni tekshirish, zarur ko‘rgazmali qurol va jihozlarni darsga hozirlash;

2. *O‘tilganlarni takrorlash va yangi mavzuni boshlashga hozirlik*

- yangi mavzu bilan bog‘liq, o‘tgan dars mavzularini takrorlash;

- o‘quvchilarning yangi mavzuni o‘tishdan oldin bu mavzuga oid bilim darajalarini aniqlash, baholash va yangi materialni o‘zlashtirishga tayyorlash; yangi dars maqsadini tushuntirish (dars maqsadi va yoritilishi lozim bo‘lgan asosiy tushuncha va atamalar, oldindan doskaga yozib qo‘yilsa yoki qog‘ozga oldindan katta qilib yozib, osib qo‘yilsa, vaqt tejiladi);

- O‘tgan dars mavzularini takrorlash o‘qituvchi tomonidan og‘zaki so‘rov, mayda guruhlarda ish, uyga vazifani darsda birga muhokama qilish orqali amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, yangi darsni o‘tishga hozirlik, yangi dars mavzusini xarakterlovchi o‘zak savolni yoki muammoni qo‘yish orqali amalga oshiriladi. Shunday o‘zak savol yoki muammo tanlanishi lozimki, u haqiqatdan o‘quvchilar uchun qiziqarli, ajabtovur bo‘lib, o‘quvchilar diqqatini o‘ziga tortsin. O‘zak savol yoki muammo - o‘quvchilarning uni javobini bilishga bo‘lgan qiziqishini orttirsin va dars davomida shug‘ullanishga safarbar etsin va faoliyatini rag‘batlantirsin.

3. *Yangi mavzuni yoritish* – dars materiallarini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ketma-ket ma’lum uzviylikda va mantiqiy bog‘liqlikda, ko‘rgazmali tarzda va turli xil o‘qitish uslublaridan foydalangan holda berish.

4. *Yangi mavzuni mustahkamlash*

- olingan nazariy bilimlarni yorqin misollarga qo‘llash va turli xil topshiriqlarni bajarish asosida o‘quvchilarda yangi mavzuga oid amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish va baholash;

- baholash uchun beriladigan savol va topshiriqlar aynan dars maqsadidan kelib chiqqan bo‘lishi, unga erishilgan yoki yo‘qligini aniqlashga qaratilgan bo‘lishi lozim;

- Yangi mavzuni mustahkamlash butun sinf ishtirokida, turli xil tarqatma materiallar bilan ishlash, mayda guruhlarda yoki juft-juft bo‘lib ishlash yordamida amalga oshirilishi mumkin. O‘quvchilar amaliy mashg‘ulotni bajarayotgan vaqtda o‘qituvchi o‘quvchilarning faoliyatini kuzatishi, ba’zi o‘quvchilarning tushunmagan savollariga javob berishi mumkin. Shuningdek, bu bosqichda o‘quvchilarning mustaqil ishlashlariga ham sharoit yaratib berish lozim bo‘ladi.

5. *Darsga yakun yasash va baholash*

- darsning maqsadini yana bir bor eslatish va unga qanchalik erishilganlikni o‘quvchilar bilan birgalikda aniqlash;


- o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha savollariga javob berish, darsning asosiy lahzalarini qayd qilish, o‘quvchilarning o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilarni tilga olish va baholash; (o‘quvchilar bilimini baholashni butun dars davomida turli xil usullar yordamida ham bajarish mumkin; bahaloshdan maqsad o‘quvchilarga faqat qandaydir ballarni qo‘yib borishdan iborat emas, balki o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini nazorat qilib borishdan iborat bo‘lib, kerak bo‘lganda darsning borishiga o‘zgartishlar kiritish, tushunish qiyin bo‘lgan joylarga qayta to‘xtalish lozim bo‘ladi);

6. *Uyga vazifa* - o‘tilgan mavzu bo‘yicha bilim, malaka va o‘nikmalarni yanada mustahkamlashga yoki kelgusi dars uchun hozirlik ko‘rishga qaratilgan,

mustaqil bajarishga mo'ljallangan savol, mashq va topshiriqlar majmuasidan iborat bo'lmog'i lozim.


2.2. Auto Play Media Studio dasturi yordamida “Pedagogika” fanidan multimediali dastur ishlab chiqish texnologiyasi

Auto Play dasturi yordamida “Pedagogika” fanidan multimediali dastur ishlab chiqish texnologiyasini yoritamiz. AutoPlay dasturini ishga tushiramiz va undan o'zimizga kerakli temani tanlab ishimizni boshlaymiz.




2.1 – rasm. Yangi proyekt fonini tanlash


Biz istagancha sahifalar ochib, tugmalar orqali sahifadan sahifaga o'tadigan qilishimiz mumkin. Yangi sahifalar ochish uchun quyidagi rasmda ko'rsatilgandek, **Pages** bo'limi ustida sichqonchani o'ng tugmasini bosgan holda **Add** bo'limini tanlaymiz.



Endi bizga ikkita sahifa mavjud.



Sahifa Nomini o'zgartirish uchun **Page1** ustida sichqonchani chap tugmasini ikki marta bosamiz.




Hosil bo'lgan oynaning **Name** bo'limidan Page1 yozuvini ozgartiramiz va OK tugmasini bosamiz.

Sahifamizning foniga rasm tanlash uchun, sichqonchaning o'ng tomonini bosib menyudan **Properties** bo'limi tanlanadi.




2.2 – rasm. Dastur foniga rasm qo'yish

Agar siz aynan button qo'ymoqchi bo'lsangiz, unda uskunalar panelidan



New Button Object tugmasini tanlab bosasiz.




2.3 – rasm. Button qo'yish

Quyidagi buttonlardan birini tanlab ok tugmasini bosib tanlaymiz.




2.4 – rasm. Dasturga kirish tugmasini qo'yish

Sahifamizga video qo'yish uchun uskunalar panelidan quyidagi tugmani



bosamiz


Ochilgan oynadan kerakli videoni tanlab ok tugmasini bosamiz.




2.5 – rasm. Dasturga video joylashtirish

Ispring Quiz Maker dasturida yaratilgan testni sahifamizga import qilishimiz mumkin. Buning uchun **New web object**

 Tugmasini bosamiz va paydo bo'lgan oynadan **Browse** tugmasini bosamiz



Paydo bo'lgan oynadan Ispring Quiz Maker dasturida yasalgan loyihaning **swf** formatdagi faylini tanlab OK tugmasini bosamiz.



2.6 –rasm. Swf formatdagi faylni ochish

Dasturimizni ishlatib koramiz.

Quiz 3

Question 1 of 21 Point Value: 10 / Total Points: 0 out of 210

Дидактика сўзи қандай маъноларни англатади?


- ☐ Ўқитиш, ўрганиш
- ☐ Таълим олиш
- ☐ Ўрганиш, таҳлил қилиш

Answer Finish

Menyuga qaytish


2.7 – rasm. Quize oynasini ko'rinishi

Loyihangiz tayyor bo'lgandan so'ng uni dastur ko'rinishida saqlash uchun Build tugmasi  bosiladi va quyidagi oynadan ozinga maqbul variantni tanlab Ok tugmasini bosasiz. Hard drive folderni tanlaymiz.




2.8 – rasm. Hard drive folder


Dasturning saqlash joyi va nomi ko'rsatiladi



2.9 – rasm. Output folder



2.10 – rasm. Building to folder



2.11 – rasm. Build Complete

Tayyor publish bo'lgan dasturimizni ochib foydalanamiz.



2.12 – rasm. Dasturning asosiy ko'rinishi



2.13 – rasm. Dasturning asosiy menyusi

2.3. Multimediali dasturlarni ta'lim jarayoniga tadbqiq etish metodikasi

Ta'lim jarayonida multimedia vositalarini qo'llash pedagogik va psixologik nuqtai nazardan juda katta ahamiyatga ega. Unda beriladigan material chuqurroq o'zlashtiriladi, vaqtni tejash imkoniyatiga erishiladi, olingan malumot kishi xotirasida uzoq vaqt saqlanadi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning passiv tinglovchi sifatida ishtirok etishi qisqarib, izlanuvchanlik va bilish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan multimedia dasturlari tadbqiq etiladi, ta'lim jarayoniga badiiylk kiritiladi. Boshqacha qilib aytganda, multimedia ta'limning emotsional-estetik ta'sirlanish, maqsadga intilish, tadqiqotchilik kabi motivlarni faolashtiradi. Ma'lumki, ta'lim oluvchi birinchi marta eshitgan mavzusining faqat to'rt dan bir qismini, ko'rgan materiallarining esa uchdan bir qisminigina eslab qoladi; ham ko'rib, ham eshitsa axborotning ellik foizini yodda saqlaydi. Interaktiv multimedia texnologiyalaridan foydalanganda esa bu ko'rsatkich 75 % tashkil etadi.

Shu bois katta hajmdagi axborotni qabul qilish, tushunish hamda voqelikka nisbatan faol va ma'suliyatli munosabatni tarbiyalashning psixofiziologik va estetik xususiyatlarini hisobga oluvchi multimedia nazariyasini hususan multimedia pedagogikasini yaratishga intilish kerak.

Multimediani qo'llash uchun quyidagi texnik vositalar kerak bo'ladi: kompyuter, lazer disklarni o'qiydigan CD ROM qurilmasi, CI-ovoz xaritasi, AC faol kolonka, CD- kompakt disk eng zamonaviy kompyuterlarda yuqoridagi qurilmalarning ba'zilar kompyuter ichiga joylashtiriladi.

Ta'lim jarayonida multimediani qo'llashda o'qituvchiga hozircha dasturlovchi mutaxassis yaqindan yordam berishi kerak. Dastur tuzuvchilar tomonidan rus va chet tillarni tez va oson o'rganishga yordam beruvchi dasturlar ishlab chiqilgan. Biroq o'zbek tilini o'rganish bo'yicha deyarli dasturlar mavjud emas. O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalari uchun DTS yaratilgan, o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalar tatbiq qilinmoqda va davlat tiliga katta e'tibor berilmoqda. Ammo o'zbek tilini o'rganish bo'yicha mukammal multimedia dasturlari ishlab chiqilgan

emas. Bunda o'zbek tilini o'qitish bo'yicha multimedial dasturlarini tuzish bir qator moddiy qiyinchiliklar bilan bog'liq. Biroq hajmi uncha katta bo'lmagan (masalan, darsning 10-15 minutiga mo'ljallangan) oddiy vositalar va bir dona shaxsiy kompyuterlar foydalanadigan multimedia dasturining ssenarisini yozishga urinib ko'rish metodist va boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun dolzarb muammo va ayni vaqtda qiziqarli mashg'ulot bo'lishi kerak.

Umuman olganda, ta'lim tizimida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning quyidagi usullari mavjud:

1. Multimedia darsligi.
2. Bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash bo'yicha topshiriqlar to'plami keltirilgan metodik tavsiyalar.
3. O'rganilayotgan mavzular bo'yicha nazariy bilimlar boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan qanday darajada o'zlashtirilayotganini tekshirishga mo'ljallangan test dasturi.
4. Bir tildan ikkinchiga yoki bir alifbodan ikkinchisiga o'tirish;
5. Elektron virtual kutubxona;
6. Har bir talaba usun amaliy topshiriqlarni tayyorlash va bosib chiqarish dasturi;
7. Distant uslubida o'qitish, ya'ni o'qituvchi va o'quvchilar ma'lum masofada joylashgan holda ta'lim berish tizimi.
8. Internet tarmog'iga ulangan multimedia kompyuterlari.
9. Printer(topshiriqlarini tayyorlash va test natijalarini chiqarish uchun).
10. Kompyuter ulangan proyektor yoki aqdim etish texnologiyasi.

Quyida biz shu usullardan biri, kompyuterlashgan darslarning eng oddiy turi mashg'ulotni taqdim etish texnologiyasi yordamida, ya'ni ko'rgazma sifatida o'tkazish haqida to'xtalmoqchimiz.

Bu usulda dars o'tkazish uchun o'qituvchiga ovoz xaritasi va kolonkasi mavjud bo'lgan kompyuter, multimedia proyektori va MS Power Point 97 dasturi yordamida o'tilajak dars uchun kompyuterda slaydlar yaratiladi. Slaydlar ma'lum mavzuni yorituvchi matn, rasm, lug'at, grammatik qoidalar bilan bog'liq bo'lgan jadvallar,

animatsiya effektlari, o'zlashtirish darajasini tekshirish uchun testlar, ovoz, video rolik va hokazolardan tashkil topadi. Ular muayyan mantiqiy ketma-ketlikda birlashtiriladi. Slaydlarni almashtirishning vaqti (interval) belgilanadi. O'qituvchi tasvirni ko'radi, eshitadi.

Bunday dars o'tishning texnik jihatdan ikki usuli mavjud:

1-usul. Kompyuter tarmog'i bor bo'lsa har bir o'quvchi o'z monitorida ko'radi;

2-usul. Multimedia texnologiyasi asosidagi dars na'munasini .

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun ta'lim muassasasining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'zbek tili fanini tanladik. Darsni rejalashtirishda, slaydlar tayyorlashda quyidagi omillarga alohida e'tibor berishimiz kerak. Ta'lim muassasasida esa mavjud bilimlar faqat takomillashtiriladi, ya'ni lisoniy bilimlar o'zbek tilining til sohalari bo'yicha emas, balki yagona maqsadga yo'naltirilgan ravishda nutqiy ehtiyoj zaruriyatdan kelib chiqqan holda kompleks beriladi. Natijada o'quvchilarda mavzu bo'yicha o'z fikrini o'zbek tilida mustaqil ifoda eta olish ko'nimalarini yanada rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Multimedia quyidagi xususiyatlarga ega:

- axborot turlarini matn, jadval, turli xil bezaklar, nutq, musiqa, telekadrlar, videofilmdagi parchalar, animatsiya ko'rinishidagi axborotlarni o'z ichiga oladi;
- turli xil axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy prsessorning harakatchanligini, ma'lumotlarni uzatishning o'tkazish qobiliyatini, tezkor hajmli va katta sig'imli xotirani, kompyuter kanallari bo'yicha almashish tezligini taxminan ikki baravar oshirish talab etiladi;
- "o'quvchi-kompyuter-o'qituvchi" interaktiv muloqotning yangi darajasini ta'minlanishi, muloqot jarayonida o'quvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni olishi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim muassasalarining zamonaviy jarayonida axborot texnologiyalaridan, jumladan, multimedia vositalaridan foydalanish quyidagi muhim muammolarni yechishda yordam beradi:

- ❖ Ta'lim jarayonini faollashtirish;

- ❖ o'quv faoliyatining samaradorligini oshirish;
- ❖ talabalarining mustaqil ravishda ishlash madaniyatini rivojlantirish;
- ❖ egallayotgan kasbiga ijodiy yondoshish ko'nikmasini hosil qilish;
- ❖ mustaqil ta'lim doirasini kengaytirish, xullas, yetuk mutaxxasislarni yetishtirish.

Shu sababdan hozirgi paytda pedagog va dastur tuzuvchisi mutaxassislarning birlashib, turli fanlardan multimedia darsliklari yaratish ta'lim samaradorligini oshirish uchun kutilgan natijalarni berishini unutmasligimiz kerak.

Darsning borishi:		
	Tashkiliy qism (3 min)	Talabalar bilan salomlashib bo'lingach kerakli texnik vositalar o'rnatiladi va dars mavzusi e'lon qilinadi.
	Talabalarining bilimlarini oldindan tuzilgan savol va topshiriqlar bo'yicha tekshirish (10 min)	Talabalarni bilimini tekshirishda aqliy hujum uslubidan foydalangan holda savollar beriladi. Shu vaqt ichida o'qituvchi talabalarni yo'qlama qiladi.
	Yangi materialni oldingi o'tilgan dars bilan bog'lash (7 min)	Yangi mavzuni o'tilgan mavzuga mantiqiy bog'lab dars davom ettiriladi. Bu eng asosiy qism hisoblanadi bunda talabalarining mavzuni tushunish darajasi ortadi.
	Yangi o'quv materialini bayon qilish va uni mustahkamlash (50 min)	Yangi material bayon etilishida quyidagilardan foydalaniladi: • Mavzu taqdimoti 12 min ni tashkil etadi. • Mavzuga taaluqli video qo'yiladi (5 min) • Mavzu yuzasidan savol javob o'tkaziladi

		(13 min) Yaratilgan dastur orqali talabalarni kichik guruhlarga ajratib, ularga savollar beriladi. (20 min).
	O'rganilgan materialni va ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni umumiyashtirish (5 min)	Talabalar o'rgangan materialini mustahkamlash maqsadida ularga mavzuga oid kalit so'zlar beriladi (5 min)
	Darsni yakunlash (3 min)	Dars yakunlanadi va mavzu yuzasidan savol javoblar o'tkaziladi (3 min)
	Uyga vazifa (2 min)	Mavzuga doir qo'shimcha materiallar topib bilimlarni mustahkamlash

Texnologik xarita

Fan	Pedagogika
Dars mavzusi	Ta'limning tashkiliy shakllari
Axborot-kommunikatsion texnologiyalari vositalaridan foydalanishning dolzarbligi	1. Qisqa vaqt ichida ko'p material berish zarurligi 2. O'quv materialini bir vaqtda eshitish, ko'rish xamda amalda sinash samaradorligi 3. Ba'zi bir axborotlarni real holda ko'rish, kuzatish mumkin emasligi
Dars maqsadi	Talabalarda masofaviy ta'limda qo'llaniladigan vositalar to'g'risidagi tasavvurni shakllantirish va bilim darajasini

	rivojlantirish.		
Dars vazifasi	Ta’limiy	Rivojlantiruvchi	Tarbiyaviy
	Talabalarda masofaviy ta’limda qo’llaniladigan vositalarini bilib olishadi.	Intelektual o’quvlar va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	Axborot madaniyatiga bo’lgan ehtiyojni shakllantirish
Darsda foydalaniladigan AKT vositalari turlari(resurslari)	1. Elektron o’quv-metodik majmua 2. Multimediali electron darslik 3. Elektron ta’lim resurslari		
Zarur bo’ladigan apparat va dasturiy ta’minot	Multimediali kompyuter, lokal tarmoq, Internetga ulanish, Auto Play dasturi		
Darsning tashkiliy tuzilmasi			
1-bosqich		Tashkiliy	
Maqsad	Talabalar bilan iliq munosabat o’rnatish, ularda mavzuni o’rganishga nisbatan motivatsiyani yuzaga keltirish		
Bosqich davomiyligi	2 daqiqa		
Mazkur bosqichda o’qituvchining vazifalari va asosiy	Talabalar bilan salomlashish, ularni darsda qatnashishga		

faoliyat turlari	tayyorlash, davomadni tekshirish.
2-bosqich	O'tkan mavzularni takrorlash
Bosqich davomiyligi	10 daqiqa
Mazkur bosqichda o'qituvchining vazifalari va asosiy faoliyat turlari	O'tilgan mavzuni qisqacha bayoni bilan tanishtirish
3-bosqich	Maqsad va vazifalarni qo'yish
Maqsad	Bugungi ma'ruzaning maqsadi va unga erishish uchun bajariladigan vazifalar bilan talabalarni tanishtirish
Bosqich davomiyligi	2daqiqa
AKT vositalari bilan asosiy faoliyat turi	Multimedia vositalari
Talabalar faoliyatini tashkil qilish shakli	Guruhli
Mazkur bosqichda o'qituvchining vazifalari va asosiy faoliyat turi	Dars mavzusi va ish rejasini e'lon qilish, vazifalarni aniqlashtirish, o'rganish faoliyati uchun motivatsiyani yuzaga keltirish
4-bosqich	Yangi mavzuni tushuntirish
Maqsad	Talabalarda masofaviy ta'limda qo'llaniladigan vositalar to'g'risidagi tasavvurni shakllantirish, ularni taxlil qilish o'quvlarini xosil qilish
Bosqich davomiyligi	40 daqiqa
AKT vositalari	

bilan asosiy faoliyat turi	Kompyuter va multimedia vositalari
Talabalar faoliyatini tashkil qilish shakli	Multimediali elektron darslik yordamida interaktiv ma'ruza bo'lganligi uchun o'quvchilar bilan ichki va tashqi muloqot tashkil qilinadi
Mazkur bosqichda o'qituvchining vazifalari va asosiy faoliyat	Multimediali elektron darslik yordamida interaktiv ma'ruza orqali mavzuni tushuntiradi
5-bosqich Uy vazifasi	
Maqsad	Mavzuni mustahkamlash
Bosqich davomiyligi	20 daqiqa
AKT vositalari bilan asosiy faoliyat turi	Kompyuter va multimedia vositalari
Talabalar faoliyatini tashkil qilish shakli	Mavzu yuzasidan klaster yaratish
Mazkur bosqichda o'qituvchining vazifalari va asosiy faoliyati	Uy vazifasini tushuntirish
6-bosqich Yakun yasash	
Maqsad	Darsga yakun yasash
Bosqich davomiyligi	4 daqiqa
AKT vositalari bilan asosiy faoliyat turi	EUMK dan foydalanib qanday vazifalar bajarishlarini bilib olish
Talabalar faoliyatini tashkil qilish shakli	Guruhli va individual

Mazkur bosqichda o'qituvchining vazifalari va asosiy faoliyati	Maqsadga qanchalik erishgani, vazifalar qay darajada bajarilganligi, yutuq va kamchiliklar to'g'risida gapiradi, faol talabalarga tashakkur e'lon qiladi
--	---

III – BOB. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI VA EKOLOGIYA

3.1. Ish joylarini tashkil qilish

Kompyuterni xonada to'g'ri joylashtirish va to'g'ri loyixalanib, o'rnatilgan yoritgichlar foydalanuvchini ko'rishini yaxshi taminlaydi, asab tizimiga qo'shimcha zo'riqish bermaydi, operatorni normallashi faoliyatini taminlaydi, ish jarayonidagi xatolarni keskin kamaytiradi. Kompyuterlarni alohida xonalarga 5-6 displeydan ortiq bo'lmagan xolda joylashtirish tavsiya qilinadi. Bu eng avvalo mikroiklimni yo'l qo'yilgan qiymatlari parametrlarini taminlashga imkon beradi. Sanitar normalarga muvofiq bita foydalanuvchi uchun 5m² maydon, hajmi 20m³ dan kam bo'lmasligi kerak. Gigienik nuqtai nazardan kompyuterni shunday joylashtirish kerakki, ekrandan ko'zni ko'targanda, xonadagi eng uzoqda joylashgan narsa ham ko'rsin. Operatorning ish joyini kirish eshigiga yuzi qaragan holda joylashtirish eng samarali hisoblanadi. Eng uzoq masofaga nigohni o'tkazish imkoni-kompyuterda ishlagandagi ko'rish tizimining og'irligini kamaytirishni eng samarali usuli hisoblanadi. Ish joylarini kompyuterdan devorgacha bo'lgan masofa 1m dan kam bo'lmagan holda xonaning burchaklariga yoki devorga qaratib joylashtirish, derazadan tushgan yorug'lik ko'z uchun ortiqcha zo'riqish bo'lmasligiga yordam beradi. Shuning uchun ham kompyuterni derazaga qaratib joylashtirmaslik darkor. Agar bir xonada bir necha komp'yuterlar joylashgan bo'lsa, elektromagnit nurlarning tasirini kamaytirish uchun bir manitor ekranidan ikkinchisining orqa devorigacha masofa 2 m dan kam bo'lmasligi kerak.

Sanitar qoidalarga muvofiq shaxsiy kompyuterlar joylashgan xonada aralash yoritilganlik, ya'ni tabiiy va sun'iy bo'lishi kerak. Tabiiy yoritilganlik iloji boricha shimolga va shimoliy sharqqa yo'naltirilgan bo'lishi, imkoni bo'lmasa, jadal quyosh nuri janubiy va g'arbiy derazalardan yaltillashlar yuzaga keltirmasligi va ishlashga xalaqit qilmasligi uchun derazalarni pardalar, jalyuzlar yoki tashqi to'sqichlar bilan taminlash kerak. Ish joyi derazaga nisbatan yonlanmasiga joylashgan bo'lib, tabiiy yorug'lik chap tarafdin tushishi maqsadga muvofiq. Kompyuterlar shunday joylashishi kerakki, yoniq ekran boshqa operatorning ko'rish maydoniga

tushmasligi, ekranda tabiiy va suniy yoritilganlikning aksidan yaltillashlar bo'lmasligi kerak.

Ko'rish sharoitini baxolash uchun yaltillaganlik tushunchasi kiritiladi. Yaltillaganlik-ko'rish funktsiyasini buzilishiga olib keluvchi yaltillagan yuzlarning kuchaygan yorug'ligi bo'lib, obektni ko'rishni yomonlashtiradi. Yaltillamaslikning birligi-kg/m². 30 ming kg/m² ga teng yorug'lik ko'zni ko'r qiladi. Yaltillaganlik haddan tashqari asabiylashuvini yuzaga keltiradi. Shuning uchun sanitar qoidalar yorug'lik keltiradi. Shuning uchun sanitar qoidalar yorug'lik manbaidan to'g'ridan-to'g'ri paydo bo'ladigan yaltillaganlikni chegaralaydi. Deraza, yoritgichlardan tushgan yorug'lik ko'rish maydonida 200 kg/m² dan oshmasligi kerak. Ekran, stol, klaviatura kabi ish yuzasidan qaytgan nurlardan hosil bo'ladigan yaltillaganliklarni ham chegaralash kerak. Bu yoritgichlarni to'g'ri tanlab, ish o'rinlarini tabiiy va suniy yoritgichlarga nisbatan to'g'ri joylashtirish hisobiga amalga oshadi, bunda yaltillashlarning yorug'ligi displey ekranida 40 kg/m² dan oshmasligi kerak.

Mutaxassislarning tavsiyasiga ko'ra devorlar, mebellar och sut rangda, shipdan nur qaytarish koeffitsienti 0.7- 0.8, devordan va poldan 0.6 va 0.3 bo'lishi kerak. Bunga shipni oq ranga, devorlarni och sariq va qizqish ranga bo'yash natijasida erishish mumkin. Umumiy yoritish uchun lyuminescent lampalar ishlatilishi natijasida ulardan yorug'lik oqimi kuchlanishining o'zgarishiga qattiq bog'liq bo'lganligi sababli yoritilganlikning tebranishi yuzaga keladi, bu o'z yo'lida ko'zni har safar adaptatsiya qilishiga, toliqishiga olib keladi. Shuning uchun mahalliy va umumiy yoritgichlar sifatida yuqori chastotali, yonishini nazorat qiluvchi uskunali gazorazryadli lampalar ishlatilishi kerak. To'g'ri tanlangan, yani eng kamida Shvetsiya o'lchovlar va sinovlar Milliy komiteti tomonidan qabul qilingan MRK(II) talablariga javob beradigan va kerakli sertifikat bo'lgan kompyuterlarda ishlaganda foydalanuvchi sog'lig'ini saqlash maqsadida quyidagi qiyin bo'lmagan qoidalariga rioya qilish kerak:

- ish joyi qulay bo'lishi va tayanch-harakat apparatini hamda qon almashishini normal ishlashini taminlash kerak;

- kun davomida videoterminalda umumiy ishlash davomiyligi 4 soatdan oshmasligi, videoterminalda uzluksiz ishlash 1.5-2 soatdan ko'p bo'lmasligi, har bir soat ishdan so'ng kamida 10-15 minut tanaffuz qilish, shu paytda o'rindan turib, ko'z, bel, qo'l va oyoq uchun maxsus mashqlar qilish kerak.

- normal ko'rish qobiliyatida ko'z ekrandan qo'l cho'zganchalik (yani 60-70 smdan kam bo'lmagan) masofada bo'lishi va yiliga kamida bir marotaba ko'z vrachiga tekshirtirib turish kerak;

- bir soat mobaynida 10 mingdan ortiq klavishni bosish kerak emas;

- monitor ekranida yaltillashlar paydo bo'lishiga yo'q qo'yilmasligi kerak;

- homilador ayollarning kompyuterda ishlashiga ruxsat berilmaydi.

3.2. Mehnat qobiliyati va uning dinamikasi

Mehnat qobiliyati - bu insonning jismoniy yoki aqliy ishida unga yuklatilgan hajmdagi ishni bajarish qobiliyatidir. Mehnat gigienistlari va fiziologlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarni ko'rsatishicha insonning mehnat unumdorligi bajariladigan ishga bog'liq bo'lmagan holda (aqliy yoki jismoniy), ko'p omillarga bog'liq bo'ladi.

Bu omillarga organizm funktsional sistemasining asab, bezlar sistemasi, tana haroratini bir xilligi, nafas olish, qon aylanishi va skelet mushaklari kiradi. Yuqorida qayd etilganlardan birortasining funktsiyasini buzilishi inson mehnat qobiliyatini sezilarli pasayishiga olib keladi. Insondagi zararli odatlarni mehnat qobiliyatiga salbiy ta'siri ham tadqiqotlar natijasida aniqlangan. Sigaret chekish, alkogol ichimliklarga ruju qo'yish o'pka, jigar kasalliklariga sabab bo'lib, sog'liq bilan bog'liq murakkab holatlarni keltirib chiqaradi. Bularning oqibatida jismoniy va aqliy mehnat bilan shugullanuvchi ishchilarni mehnat qobiliyati pasayishi kuzatiladi. Bu holatni tibbiy statistika ma'lumotlari ham tasdiqlaydi. Evropadagi bir qator mamlakatlardagi ko'pgina korxonalarda zararli odatlarga ega bo'lgan ishlovchilarni mehnat qobiliyati xususan mehnat unumdorligi pasayishi sababli ularning mehnat haqlarining pasayishi ham tasodifiy hol emas.

Barcha mehnat gigienistlari va fiziologlarining tasdiqlashicha sog'lom turmush tarzini kechiruvchi insonning yuqori darajadagi mehnat unumdorligi nafaqat butun mehnat faoliyati davomida balki, undan keyin ham saqlanib qoladi. Bunday tashqari tadqiqotlar jarayonida quyidagi ma'lum qonuniyatlar ham aniqlangan.

1) Insonning ko'pchilik organizmlarining fiziologik funksiyasi kunduzi faol bo'ladi. Shu sababli kunduzi mehnat qobiliyati kechasiga qaraganda yuqori darajada bo'ladi.

2) Ma'lumki, davolash muassasalari, (kasalxonalar, jarohatlanganlarni qabul qilish punktlari va boshqalar), elektr stantsiyalari, bir qator sanoat korxonalari, temir yo'l transportlari (xususan uzoqqa qatnaydigan poezdlar) kunu-tun to'xtovsiz rejimda ishlaydi. Kechasi katta jismoniy energiya sarf qilib ishlaydigan odamlarning mehnat unumdorligi nisbatan katta bo'lmaydi. Kechasi soat 2:00 bilan 4:00 o'rtasidagi ishlarda mehnat qobiliyati (kunduzgi eng past unumdorlikka) kamayadi, bunday tashqari ishning unumdorligi va sifati pasayadi. Kunduzgi ishga qaraganda erta tongda 2 barobar ko'p xatoga yo'l qo'yiladi. Bu holatni albatta dispetcherlik xizmati xodimlari hisobga oladi va boshqa odamlarni xavfsizligi ularni faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

3) Insonni dam olish va ishlash rejimi vaqt bo'yicha organizm bioritmiga mos kelsa istagan faoliyatida eng yuqori darajadagi mehnat unumdorligiga erishish mumkin.

4) Jismoniy mehnat bilan kechqurun, ertalab va kunduz kuni shug'ullanish mumkin.

5) Normal bedorlik soatlarida eng yuqori mehnat qobiliyat davrini ehtiyoj yoki hoxishga mos holda ongli ravishda aralashtirishi mumkin. Bu ilmiy tadqiqotlar va hayotiy tajribalarda ham tasdiqlangan. Bu avvalo aqliy mehnat bilan shug'ullanadigan ishchilarga taalluqli, shu bilan birga aqliy mehnatda unumdorlik dam olishdan (uyqu, dam olish uchun tanaffus) keyin yuqori bo'lishi shubhasiz va bu odatda ishlarni rejalashtirishda hisobga olinadi.

Aqliy mehnat ishchilarni ishlari oldidan to'g'ri rejalashtirilganda ular eng yuqori mehnat unumdorligiga erishadi. Mehnat unumdorligini saqlashning boshqa muhim sharti ratsional ovqatlanish hisoblanadi. Ovqatlanish keragidan ortiqcha yoki kam bo'lmasligi kerak. Kam ovqatlanishda organizm kuchni tiklash uchun etarli kalloriyani ololmaydi, bu mehnat qobiliyatini pasaytiradi.

Mehnat va dam olish jarayonlarining to'g'ri tashkil etilishi jarohatlanishni oldini olishning muhim sharoitlaridan biridir.

Insonning ish qobiliyati, uning har xil zararli va xavfli ishlab chiqarish omillarini sezish reaksiyasi va to'xtovsiz mehnat jarayonining davomiyligiga bog'liq bo'ladi.

Agar odam ish kuni davomida belgilangan davrdan ortiqcha to'xtovsiz ishlasa, u jismoniy charchash bilan birga asabiy ham charchaydi. Bularga ish sharoitidagi shovqin, titrash, gazlanganlik, changlanganlik va boshqa shunga o'xshash zararli va xavfli omillarning qo'shilishi, ishchilarni jarohatlanishini yoki avariya holatlarining hosil bo'lishi ehtimolini oshiradi. Shu sababli ma'muriyat mamlakatning mehnat haqidagi qonunchiligi belgilagan mehnat va dam olish rejimiga qat'iy rioya qilishi kerak. Xodimni surunkasiga ikki smena davomida ishga jalb qilish mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida ishchi va xizmatchilarning mehnatiga alohida e'tibor qaratilgan. Qonunchilik mehnat haftasining davomiyligini 40 soat qilib belgilagan. Olti kunlik ish haftasida har kungi ishning davomiyligi 7 soatdan, besh kunlik ish haftasida esa 8 soatdan ortib ketmasligi lozim. 15-16 yoshdagi bolalarning mehnat haftasi esa 24 soatga va 16-18 yoshdagi o'smirlar mehnat haftasining davomiyligi 36 soat qilib belgilangan. Agar ish zararli mehnat sharoitida amalga oshirilsa u holda ishchi hafta davomiyligi 36 soatgacha qisqaradi. Mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda band bo'lgan xodimlar uchun ish vaqtining muddati chegarasi O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilanadi. Bayram oldi ish kunlari arafasida kundalik ish (smena) muddati barcha xodimlar uchun kamida 1 soatga qisqartiriladi. Agar xodim uchun belgilangan kundalik ish (smena) muddatining kamida yarmi tungi vaqtga to'g'ri

kelsa, tungi ish vaqti muddati bir soatga, ish haftasi muddati ham shunga muvofiq ravishda qisqartiriladi. Soat 22.00 dan to 6.00 gacha bo'lgan vaqt tungi vaqt hisoblanadi (122-modda).

Har kuni normal ish vaqtining davomiyligiga rioya qilinish imkoniyati bo'lmagan ishlarda qonunchilik ma'muriyatga kasaba qo'mita bilan kelishilgan holatda umumlashtirilgan ish vaqtini joriy etishga ruxsat beradi. Shu bilan birga bunda bir smenadagi ish vaqtining davomiyligi 12 soatdan va ish vaqtining haftadagi o'rtacha davomiyligi 40 soatdan oshmasligi kerak. Yuqori darajadagi hishayajon, aqliy zo'riqish, asab tangligi bilan bog'liq, ya'ni alohida tusga ega bo'lgan ishlardagi ayrim toifadagi xodimlar uchun (tibbiyot xodimlari, pedagoglar va boshqalar) ish vaqtining muddati haftasiga o'ttiz olti soatdan oshmaydigan qilib belgilanadi.

Ish vaqtidan tashqari olib boriladigan ishlar kasaba uyushmasi qo'mitasining ruxsati bilan bajariladi.

Mehnat qonunchiligi bo'yicha bir yillik ortiqcha ish vaqti har bir xodim uchun 120 soatdan va ketma-ket ikki kunlik ish kunida ortiqcha ish vaqti 4 soatdan oshmasligi kerak. Ish vaqtidan tashqari bajariladigan ishlar uchun haq to'lash Mehnat kodeksining 157-moddasiga asosan to'lanadi. qonunchilik 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlar, yosh bola boqayotgan va homilador ayollarga ortiqcha ish vaqtida ishlashga ruxsat bermaydi. Homilador ayolning o'n to'rt yoshga to'lmagan bolasi (o'n olti yoshga to'lmagan nogiron bolasi) bor ayolning shu jumladan homiyligida shunday bolasi bor ayolning yoki oilaning betob a'zosini parvarish qilish bilan band bo'lgan shaxsning iltimosiga ko'ra ish beruvchi tibbiy xulosaga muvofiq ularga to'liqsiz ish kuni yoki to'liqsiz ish haftasi belgilashga burchlidir.

Normadan ortiqcha ishlar mamlakat mudofaasi, baxtsizlikning oldini olish, avariyaning yoki ularning oqibatlarini tugatish uchun yoki jamoat va davlat boyliklarining ishdan chiqishiga olib keladigan suv, gaz, issiqlik, yorug'lik, kanalizatsiya va shunga o'xshashlarda va yuklarni tushirish yoki ortish tez amalga oshirilishi kerak bo'lgan holatlarda bajariladi. I va II guruh nogironlariga mehnatga haq to'lash kamaytirilmagan holda ish vaqtining haftasiga o'ttiz olti soatdan

oshmaydigan qisqartirilgan muddati belgilanadi. Ushbu guruh nogironlariga 30 kalendar kundan kam bo'lmagan muddat bilan yillik uzaytirilgan asosiy ta'til beriladi. Nogironlarni tungi vaqtdagi ishlarga, shuningdek ish vaqtidan tashqari ishlarga va dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilish faqat ularning rozligi bilan yo'l qo'yiladi. Bu holda ham bajariladigan ishlar tibbiy tavsiyalarda taqiqlanmagan bo'lishi kerak.

Bayram va dam olish kunlaridagi ishlar. Dam olish kunlarida ishlash taqiqlanadi. Ish beruvchining farmoyishi bo'yicha ayrim xodimlarni alohida hollardagina, jamoa shartnomasi tuzilib kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishib belgilangan asoslar bo'yicha dam olish kunlari ishga chi?ishga taklif etiladi (130-modda).

Xodimlarni dam oladigan kunlari ishga jalb etish (220, 228, 245-moddalarda) belgilangan cheklanishlarga rioya etgan holda amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish – texnika sharoitlari va boshqa sharoitlarga ko'ra ishni to'xtatib turish mumkin bo'lmagan joylarda, aholiga xizmat ko'rsatish zarurati bo'lgan ishlarda, shuningdek kechiktirib bo'lmaydigan ta'mirlash va yuk ortish-tushirish ishlarida bayram kunlari ishlashga ruxsat etiladi (132-modda).

Dam olish va bayram kunlari bajariladigan ishlar uchun kompensatsiya va haq to'lash Mehnat kodeksining 157-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Dam olish vaqti - xodim mehnat vazifalarini bajarishdan xoli bo'lgan va bunday u o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanishi mumkin bo'lgan vaqtdir.

Xodimga ish kuni davomida dam olish va ovqatlanish uchun tanaffus berilishi kerak, bu tanaffus ish va?tiga kirmaydi. Ishning tugashi bilan keyingi kuni ish boshlanishi o'rtasidagi kundalik dam olish vaqtining muddati 12 soatdan kam bo'lishi mumkin emas.

Barcha xodimlarga dam olish kunlari beriladi. 5 kunlik ish haftasida xodimlarga haftada ikki dam olish kuni, 6 kunlik ish haftasida esa bir dam olish kuni beriladi. Yakshanba umumiy dam olish kunidir. Xodimlarga 15 ish kunidan kam bo'lmagan muddatga yillik asosiy ta'til beriladi.

Quyidagi hollarda xodimlar yoshi va sog'ligi hisobga olingan holda yillik uzaytirilgan asosiy ta'til beriladi:

- 18 yoshga to'lmagan shaxslarga - 30 kalendar kun;
- ishlayotgan I va II guruh nogironlariga - 30 kalendar kun.

Ayrim toifadagi xodimlarga ularning mehnat vazifalarining o'ziga xos jihatlari va xususiyatlarini hamda boshqa holatlarni e'tiborga olib, qonun hujjatlariga muvofiq, uzaytirilgan ta'tillar belgilanadi.

3.3. Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar

Favqulodda vaziyatlar ularning vujudga kelish sabablariga ko'ra tasnif kilinadi va ular ushbu vaziyatlarda zarar ko'rgan odamlar soniga, moddiy zararlar mikdoriga va ko'lamlariga qarab lokal, maxalliy, respublika va transchegara turlarga bo'linadi.

I. Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar

1. Transport avariylari va xalokatlari:

Ekipaj a'zolari va yolovchilarning o'limiga, xavo kemalarining to'liq parchalanishiga yoki qattiq shikastlanishiga xamda qidiruv va avariya – qidiruv ishlarini talab qiladigan aviahalokatlar;

Yong'inga, portlashga, xarakatlanuvchi tarkibning buzilishiga sabab bo'lgan va temir yo'l xodimlarining, xalokat haqidagi temir yo'l platformalarida, vokzal binolarida va shahar imoratlarida bo'lgan odamlar o'limiga, shuningdek tashilayotgan kuchli ta'sir ko'rsatuvchi zaxarli moddalar bilan (KTKZM) xalokat joyiga tutash xududning zaxarlanishiga olib kelgan temir yo'l transportidagi xalokatlar va avariylar.

Favqulodda vaziyat - bu muayyan xududda o'zidan so'ng odamlarning qurbon bo'lishi, odamlar sog'lig'i yoki atrof-muxitga ziyon etkazishi, kishilarning xayot faoliyatiga kattagina moddiy zarar xamda uning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, xalokat, stixiyali ofat, epidemiyalar, epizootiyalar natijasida yuzaga kelgan xolatdir.

Portlashlarga, yong'inlarga, transport vositalarining parchalanishiga, tashilayotgan KTKZMlarning zararli xossalari namoyon bulishiga va odamlar o'limiga sabab bo'ladigan avtomobil transportning xalokati va avariylari, shu jumladan yo'l transport xodisalari;

Odamlarning o'limiga, shikastlanishiga va zaxarlanishiga, metropoliten poezdlari parchalanishiga olib kelgan metropoliten bekatlaridagi va tunellardagi xalokatlar, avariylar, yon'inlar;

Gaz, neft va neft maxsulotlarining otilib chikishiga, ochik neft va gaz favvoralarining yonib ketishiga sabab buladigan magistral ?uvurlardagi avariylar.

2. Kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariylar:

Atrof - tabiiy muxiti kuchli ta'sir kiluvchi zaxarli moddalarning otilib chikishiga va shikastlovchi omillarning odamlar, xayvonlar va o'simliklarning kuplab shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan darajada, yo'l qo'yilgan chegaraviy kontsentratsiyalardan ancha ortiq miqdorda sanitariya - ximoya xududidan chetga chikishga sabab bo'ladigan kiyoviy xavfli ob'ektlardagi avariylar, yong'in va portlashlar.

3. Yong'in – portlash xavfi mavjud bo'lgan ob'ektlardagi avariylar:

Texnologik jarayonda portlaydigan, oson yonib ketadigan xamda boshqa yong'in uchun xavfli moddalar va materiallar ishlatiladigan yoki saqlanadigan ob'ektlardagi, odamlarning mexanik va termik shikastlanishiga, zaxarlanishiga va o'limiga, asosiy ishlab chiqarish fondlarining nobud bo'lishiga, favqulodda vaziyatlar xududlarida ishlab chikarish tsiklining va odamlar hayotining buzilishiga olib keladigan avariylar, yong'inlar va portlashlar;

Odamlarning shikastlanishiga, zaxarlanishiga va o'limiga olib kelgan xamda qidirish – qutqarish ishlarini o'tkazishni nafas olish organlarini muxofaza kilishning maxsus anjomlarini va xalatlarini qo'llanishni talab qiluvchi ko'mir shaxlaridagi va ruda sanoatidagi gaz va chang portlashi bilan bog'liq avariya – yong'inlar va jinslar qo'porilishi.

4. Energetika va kommunal tizimlardagi avariya:

Sanoat va qishloq xo'jaligi mas'ul istemolchilarining avariya tufayli energiya ta'minotisiz kolishiga xamda axolii xayot faoliyatining buzilishiga olib kelgan GES, GRES, TETslardagi, ulkan issiqlik markazlaridagi, elektr tarmoqlaridagi bug'qozon bo'lmalaridagi, kompressor va gaz taksimlash shaxobchalaridagi va boshqa energiya ta'minoti ob'ektlaridagi avariya va yong'inlar.

Aholi xayot faoliyatining buzilishiga va salomatligiga xavf olib kelgan gaz quvurlaridagi, suv chiqarish inshootlaridagi, suv quvurlaridagi, kanalizatsiya va boshqa kommunal ob'ektlardagi avariya.

Atmosfera, tuproq, er osti va er usti suvlarining odamlar salomatligiga xavf tug'diruvchi darajada kontsentratsiyadagi zararli moddalar bilan ifloslanishiga sabab bo'lgan gaz tozalash qurilmalaridagi, biologik va boshqa tozalash inshootlaridagi avariya.

5. Odamlar o'limi bilan bog'liq bo'lgan va zudlik bilan avariya - qutqaruv o'tkazalishini xamda zarar ko'rganlarga shoshilinch tibbiy yordam kursatilishini talab qiladigan maktablar, kasalxonalar, kinoteatrlar va boshka ijtimoiy yo'nalishdagi ob'ektlar, shuningdek uy - joy sektori binolari konstruksiyalarining to'satdan buzilishi, yong'inlar, gaz portlashi va boshqa xodisalar.

6. Gidrotexnik xalokatlar va avariya.

Suv omborlarida, daryo va kanallardai buzilishlar, baland tog'lardagi ko'llardan suv urib ketishi natijasida vujudga kelgan xamda suv bosgan xududlarda odamlar ulimiga sanoat va qishloq xo'jaligi ob'ektlari ishining, axoli hayot faoliyatining buzilishiga olib kelgan va shoshilinch kuchirish tadbirlarini talab kiladigan xalokatli suv bosishlari.

II. Tabiiy tusdagi favkulodda vaziyatlar.

Geologik xavfli xodisalar:

Odamlar o'limiga, ma'muriy ishlab chikarish binolarining, texnologik asbob uskunalarning, energiya ta'minoti, transport kommunikatsiyalari va invratuzilma tizimlarining, ijtimoiy yo'nalishdagi binolarning va uy - joylarning turlicha

darajada buzilishiga, ishlab chiqarish va odamlar xayot faoliyatining izdan chiqishiga olib kelgan zilzilalar.

Odamlar o'limiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bulgan va xavfli xududda odamlarni vaqtincha ko'chirishni yoki xavfsiz joylarga doimiy yashash uchun kuchirishni talab kiluvchi er qimirlashlari, tog' o'pirilishlari va boshqa xavfli geologik xodisalar.

III. Ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar.

Quruqlikning holati o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar:

Xalokatli ko'chkilar - foydali kazilmalarni kazish chog'ida, yer ostiga ishlov berilishi va insonning boshqa faoliyati natijasida paydo bo'luvchi er yuzasining o'pirilishi, siljishi;

Tuproq va yer sanoati tufayli kelib chiqqan toksikantlar B bilan ifloslanishi, og'ir metallar, neft maxsulotlari, shuningdek qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida odamlarning sog'ligi uchun xavf soluvchi kontsentratsiyalarda qo'llaniladigan pestitsidlar va boshqa zaxarli ximikatlar mavjudligi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish joizki, bitiruv malakaviy ishimda ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning amaliy asoslari, pedagogik jarayonni loyihalash texnologiyasining umumiy mohiyati, interfaol darslarda o'quvchilarning biluv faoliyatlarini tashkil etish yo'llari, interfaol metodlar va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish, pedagogika fanini o'qitish metodikasi, Auto Play Media Studio dasturi yordamida "Pedagogika" fanidan multimediali dastur ishlab chiqish va uni ta'limda qo'llash tajribalari keng yoritib berilgan.

Interfaol darslarda o'quv-biluv faoliyatini guruhlarda tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, interfaol metodlar va ularning turli usullari trening asosida o'rganilgan.

Interfaol metodlar va multimediali dasturlarni ta'lim jarayonlarida qo'llash, avvalo o'qituvchilarni shu jarayonga tayyorlash va malakasini oshirishdan boshlanadi. Uning uchun o'qituvchilarni tayyorlashda, interfaol seminar, trening, maxsus maqsadli kurslar, doimiy xarakatdagi ta'lim jarayonlarini tashkil qilish va albatta multimedia dasturlarini ishlab chiqish uchun kerakli bilimlarni egallash orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

O'rta maxsus kasb –hunarkollejlarida pedagogik fanlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasini qo'llash orqali talabalar kasbiy amaliy jarayonga tayyorlanadilar.

O'rta maxsus, kasb-hunarkollejlarda pedagogik fanlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasidan foydalanishdan maqsad o'quvchilarning bilimlarini ongli, faol va yuqori o'zlashlashtirilishlarga erish va ularni mustaqil ilmiy-ijodiy izlanuvchanlik faoliyatga tayyorlash, kasbkor ko'nikmalarini shakllantirish, ularda ijtimoiy-siyosiy onglilik, vatanparvarlik, ma'suliyatlilik sifatlarini tarbiyalashdan iborat.

Kelajakda o'z bilimlarimni yanada rivojlantirib, o'z yuqori natijalarim bilan shu soha rivojiga hissamni qo'shaman.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T.: O'zbekiston, 1994. –b. 9.
2. Karimov I.A. Yuksak salohiyatli avlodni tarbiyalash – eng muqaddas maqsad. Toshkentda 16-17-fevral kunlari bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada so'zlagan nutq // Xalq so'zi , 2012. 18-fevral.
3. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1998. – b. 57.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan “O'zbekiston Konstitusiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatni barpo etishda mustahkam poydevordir” mavzusidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2015. 5 dekabr.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori-T.: “Sharq”, 1997, 57-bet.
6. To'raqulov X.A. Zamonaviy kompyuter tarmoqlari bo'yicha multimediali elektron o'quv qo'llanma yaratish texnologiyasi //Uzluksiz ta'lim. 2011.
7. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy – nazariy asoslari. – T.: Fan. 2007.
8. Hayitov A. Boymurodov N. Ta'limdagi noan'anaviy darslar va interfaol usullardan foydalanish. – T.: Yangi asr avlodi. 2006.
9. Декач А.М. “Кейс-метод в обучении” Специалист 2010 й №4
10. Долгоруков А. “Метод case-study как современная технология профессионально-ориентированного обучения”- М., “Владос”, 2008 й, 22 б
11. Козина И. “Case study: некоторые методические проблемы” Рубеж. 1997, 189 б.
12. «Pedagogika». Q.Qosnazarov, A.Pazilov, A.Tilegenov. Nukus. 2010

13. Экология и безопасность жизнедеятельности: Учебное пособие для студентов ВУЗов/ ред. Л. А. Муравий, 2002.
14. Белов С.В. Безопасность жизнедеятельности М.: Высшая школа. 2003.
15. G'Y.Yormatov, Y.U.Isomuhamedov Mehnatni muhofaza qilish. Darslik. O'zbekiston nashriyoti. Toshkent 2002.